

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 811.512.133

**BEKCHANOVA DINORA
RAJABBAYEVNA**

XORAZM GILAMCHILIK LEKSIKASI

Mutaxassislik: 5A 220102 “Lingvistika” (o‘zbek tili)

MAGISTR

AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Do‘simov Z.
filologiya fanlari doktori, professor**

Ur g a n ch - 2012

MUNDARIJA:

Kirish. Tadqiqotning umumiy tavsifi.....	3
Masalaning o'rganilishi va tarixiy ma'lumotlar.	7
I BOB. Gilamchilik atamalarining ma'noviy- lug'aviy xususiyatlari.....	15
1.1 Gilamchilik leksikasining o'rganilishi.	15
1.2. To'qish jarayoni bilan bog'liq atamalar.....	26
1.3. Gilam turlari bilan bog'liq atamalar.....	28
1.4. Atamalardagi leksik xususiyatlar..	30
II BOB. Gilamchilik atamalarining grammatik xususiyatlari.....	33
2.1. Atamalarining tarkibiga ko'ra turlari.....	33
2.2. Ayrim atamalarining tarixiy –etimologik xususiyatiga ko'ra tavsifi....	37
Xulosalar.	48
Foydalanilgan adabiyotlar.	49
Gilamchilik atamalarini so'zligi.....	52
Ilovalar.	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati tufayli ijtimoiy hayotda yangicha o'zgarishlar yuzaga keldi. Jumladan, ilm-fan va milliy ma'naviyatimizni rivojlanishida katta yutuqlarga erishildi. Bu albatta o'zbek tilshunosligida mustaqillik davrida amalga oshirilgan ishlarga ham taalluqlidir. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarida shunday ta'kidlaydilar: «...o'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlool yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlanishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda»¹.

Har bir tilning lug'at tarkibi shunday xazinadirki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho ma'lumotlar saqlanadi; xalqning kelib chiqishi va rivojlanishi, hayoti va madaniyati, moddiy-ma'naviy boyliklari, umuminsoniy madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni leksikada o'z aksini topadi. Shuning uchun ham ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo'lgan, xalqimizning moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini o'zida saqlab, rivojlantirib kelayotgan amaliy san'at tarmoqlarini o'rganishni o'z oldimizga asosiy maqsad qilib qo'ymog'imiz lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov Xiva shahrining 2500 yillik to'yida so'zlagan nutqida: "...Xorazm - noyob madaniyat, nafis san'at, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan adabiyot va she'riyat maskani, dunyoviy ilm o'choqlaridan biri... Xorazm vohasining tarixiy-madaniy

¹ I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch». Toshkent. 2008.

merosi bevosita Xiva shahri bilan bog'liqdir"², - degan edi.

Amaliy san'at tarmoqlarining tarkibiy qismi bo'lgan gilamchilik leksikasi ham bevosita Xorazm, ya'ni Xiva gilamchiligi bilan aloqador.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Gilamchilik san'ati amaliy san'atning xalq tarixi sahifalari uning o'tmishi va hozirgi kunini aks ettiruvchi, insoniyat olamining ma'naviy dunyosini o'ziga xos yo'sinda ochib beruvchi alohida tarmog'idir. Ushbu sohada bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, doktorlik va nomzodlik darajasida dissertatsiyalar yozilmoqda. Amaliy san'at leksikasining nazariy masalalariga, gilamchilik terminlarini leksik-grammatik jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar birin-ketin paydo bo'lmoqda. Lekin shunday bo'lsa ham Xorazm gilamchilik atamalarining lisoniy xususiyatlariga bag'ishlab maxsus monografik planda tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu esa ishning dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi Xorazm gilamchilik atamalarining lisoniy xususiyatlarini leksik-semantik jihatdan tahlil etish hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- tadqiqot obyekti haqida qisqacha ma'lumot berish;
- mavzuning umumnazariy muammolarini bayon qilish;
- Xorazm vohasidagi gilamchilik terminlarini to'plash, ularning lingvistik tabiatini ochib berishga xizmat qiluvchi metod va usullarga tayangan holda gilamchiik atamalarini ma'noviy- lug'aviy guruhlariga ajratish;
- to'qish jarayoni bilan hamda gilam turlari bilan bog'liq atamalarni lug'aviy va grammatik jihatdan o'rganish, nom tarkibidagi elementlarning modellarini aniqlash va hududiy xoslanish qonuniyatlarini ko'rsatib berish;
- atamalardagi lisoniy xususiyatlarni ko'rsatib berish, ularni misollar asosida izohlash;

² Хива минг гумбаз шаҳри. Тошкент: Шарқ..1997.

-Xorazm gilamchilik leksikasini boshqa qardosh xalqlar - turk, turkman, qozoq, qirg'izlar gilamchilik leksikasi bilan qiyos qilgan holda tadqiq etish, ular o'rtasidagi umumiy va farqli tomonlarni aniqlash;

-gilamchilikka oid so'z-terminlarning o'ziga xos leksik-semantik guruhlarini, ulardagi ko'p ma'nolilik, sinonimiya hodisalarini aniqlash;

-shu asosda Xorazm gilamchilik terminlarining sohaviy leksika tizimida tutgan o'rini belgilash.

Ishning tadqiqot metodlari. Yurtboshimiz I.A.Karimovning tarixiy qadriyatlarimizga bo'lgan chuqur hurmat va ehtirom, milliy merosimizdan faxrlanish g'oyasi tadqiqotimiz uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Kuzatishda qo'llaniladigan tahlil metodlari hamda tadqiq usullari bugungi mustaqillik davri ijtimoiy-gumanitar fanlar oldiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib belgilandi.

Dissertatsiya oldiga qo'yilgan asosiy maqsadga erishish va uni amalga oshirish uchun turli metodlarga murojaat qilindi. Shu nuqtai nazardan gilamchilik leksikasiga oid materiallarni qayd qilish, uning semantik maydonini aniqlashda diaxronik o'rganish metodiga murojaat qilindi.

To'plangan dalillarni tavsiflashda, ma'nosini ochishda tavsifiy usuldan ham foydalandik.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Xorazm gilamchilik terminlarining nazariy asosda tadqiq qilinishi, ularni tahlil etishda nazariy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ana shu tomoni tadqiqotimizning nazariy ahamiyatini tashkil qiladi.

Tadqiqotimizdan o'zbek tilshunosligida sohaviy leksika bo'yicha qo'llanmalar yaratish, lug'atlar tuzishda, fakultativ mashg'ulotlar o'tkazishda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlari yozishda hamda maxsus kurslar o'qishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijasida olingan nazariy va amaliy ma'lumotlardan eski o'zbek tili, o'zbek adabiy tili tarixi, o'zbek dialektologiyasi, o'zbek tili leksikologiyasi, hozirgi o'zbek adabiy tili fanlarida foydalanish mumkin. Bularning barchasi ishimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Ishimiz obyekti Xorazm vohasidagi gilamchilik leksikasi bo`lib, ularni boshqa o`zbek shevalaridagi gilamchilik atamaları bilan qiyoslash, ularning til xususiyatlarini o`rganish tadqiqot ishimizning asosiy manbai hisoblanadi. Mazkur tadqiqot predmetini o`zimizning izlanishlarmiz bo`yicha to`plagan materiallarimiz ham tashkil etadi.

**Tadqiqot ishining rejalanişi va ma`qullanishi.** Dissertatsiya mavzusi o`zbek tilshunosligi kafedrası tomonidan 2011-2012 o`quv yilida monografik tadqiqot sifatida tavsiya etildi. Tadqiqot mavzusi o`zbek tilshunosligi kafedrasida ma`qullanib, Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti rektorining 2011 yil 2-fevral 2-M buyrug`i bilan tasdiqlandi. Ishga o`zbek tilshunosligi kafedrası professori Z.Do`simov ilmiy rahbar qilib belgilandi.

Mavzu bo`yicha ishlar 2010-2012 yillarda o`zbek tilshunosligi kafedrasida olib borildi. Ishning borishi o`zbek tilshunosligi kafedrasida bir necha marta muhokama obyekti bo`ldi.

Ishning joriylanishi. Ish UrDU o`zbek tilshunosligi kafedrasida amalga oshirildi. Ishimiz o`zbek tilshunosligi kafedrasida hamda magistrantlar kengashi yig`ilishida muhokama qilinib, ijobiy baholangan. Tadqiqotning asosiy mazmuni «Filologik tadqiqotlar», «Tafakkur ziyosi», «Til gulshani» kabi to`plamlarda hamda kafedra qoshidagi «O`zbek tilshunosligining dolzarb muammolari» ilmiy-nazariy seminar va anjumanlarda o`qilgan ma`ruza va maqolalarda o`z aksini topgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va umumiy hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 2ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va gilamchilik atamaları so`zligi hamda ilovadan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 75 sahifadan iborat.

Masalaning o'rganilishi va tarixiy ma'lumotlar

Har bir xalqning asriy tajribasini o'zida mujassam qilgan, ona tilidagi lisoniy boyliklarni asrab qolish, uni ilmiy tahlil qilish, keyingi avlodlarga yetkazish hozirgi fan oldida, xususan, tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, "Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tili"³da mavjud bo'lgan so'z va iboralarni, atamalar va leksik boyliklarni o'rganish hamda lisoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

A.A.Potebnya "keyingi ma'no" deb atagan va "u tilshunoslikning o'rganish obyektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o'rganadi"⁴ deb ko'rsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargacha alohida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o'rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o'rganish tilshunoslikning alohida sohasini – terminologiyani shakllantirdi.

Ma'lumki, terminologiya masalalari ilmiy texnik ishlab chiqarish, kasb-hunar, har xil tarmoqlar leksikasi, ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga tegishli so'z va iboralarni qamrab oladi, bu tushunchalar tarixi xalq hayoti, uning moddiy va ma'naviy jihatlari bilan bog'liq hamda ularning barchasini tadqiq qilish, tilning mulkiga aylantirish hozirgi davr tilshunosligi oldida turgan, kechiktirib bo'lmaz tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

D.S.Lotte qanday kategoriyadagi so'zlar teminlashishi mumkinligi haqida gapirib: "... texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi: jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblari, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometrik

³ Каримов И.А. Ўзбекистон-келажаги буюк давлат. –Т.: Ўзбекистон, 1999.-19-бет

⁴ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике.-М.: Учпедгиз., 1958.Т.I.-19 с

obrazlar va h.k.); o'lchov birliklari"⁵, A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so'zlarining bir-biridan farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intiladi: "...termin - bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo'jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo'lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, kasb - hunar so'zlari esa – biror kasb, mutaxassislik o'rtasida ko'pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat'iy, ilmiy tavsifiga ega bo'lmagan yarim rasmiy so'zdir"⁶.

T.S. Kogotkova bu fikrga yana ham oydinlik kiritib "Mahalliy ishlab chiqarishning biror sohasi dialektal so'zlari jamini ishlab chiqarish – kasb – korlikka oid leksika deb ataymiz"⁷, - deb ta'kidlaydi.

Ko'rinadiki, olimlar termin bilan kasb –hunarga oid so'zlar o'rtasida ma'lum farqlar borligini, termin esa muayyan fan, sanoat, qishloq xo'jaligi, texnikada va boshqa sohalarda rasmiy qo'llanila oladigan, qonunlashtirilgan so'zlarni terminlar hisoblab, kasb–kor, hunarga, ma'lum bir doiraga (dehqonchilik poliz mahsulotlari va shuningdek, taom nomlarini ham) oid so'zlarni terminlar jumlasiga kiritmaydilar.

Ma'lumki, fan- texnika, qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlarida qo'llanilayotgan so'z va iboralar eng qadimgi davrlarda o'sha sohalarning boshlang'ich davrlarida qo'llanilayotgan so'z - iboralar kabi ma'lum predmetlarga atab qo'yilgan va o'sha predmetlarni bildiradigan bir ma'noli so'z va terminlardir.

Aslida termin va oddiy so'zning farqli jihatlariga etibor qaratmoqchi bo'lsak, bu hodisalarga o'sha soha bilan shug'ullangan olimlarning fikrlariga nazar solish va shu asosda termin va oddiy so'z oppozitsiyasini hal qilish maqsadga muvofiqdir. Odatda, olimlar terminlarning quyidagi belgilarini ko'rsatadilar: 1) termin bir ma'noli⁸ yoki bir ma'noli tendensiyaga ega⁹;

⁵ Лотте Д.С. Основы построение научно –технической терминологии // Вопросы теории и методики. – М.1961. -29 с.

⁶ Калинин А. В. Лексика русского языка. –М.: Изд. МГУ, 1971. -141с

⁷ Коготкова Т.С. К вопросу о производственно – профессиональной лексике говора и соотношении ее с терминологической лексикой литературного языка// Дialeктная лексика. 1969. – Л. : Наука, 1971. – 4 с.

⁸ Будагов Р. А. Введение в науку о языке. –М. 1965. -33-36с.

2) termin aniq, nominativ funksiyaga ega bo'lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o'zining bu xususiyatini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi¹⁰; 3) terminning ma'nosi tushunchaga tengdir¹¹; 4) termin stilistik jihatdan neytraldir¹²; 5) terminologik leksika alohida sistemadir¹³ va hokazo.

Keltirilgan fikrlarda olimlar terminlarning xarakterli xususiyatlarini aniq va to'la qayd qilganlar. Bu belgilardan termin uchun nihoyatda xarakterli belgilar terminlarning uslubiy neytralligi, terminologik leksika alohida tizim (sistema) ekanligi (uning bunday sistema ekanligi o'zi qo'llanilayotgan sohadagina sistema elementi sifatida ko'zga tashlanishida ko'rinadi), termin funksiya bajarishi kabilardir. Terminlar shu belgilari bilan oddiy so'zlardan farqlanishi mumkin. Terminlarning maxsus termin ekanligi o'zi qo'llanilayotgan sohada yaqqol ko'zga tashlanadi. U bu tizimdan boshqa tizimga o'tsa oddiy so'zga aylanadi. Shu sababli ham M. Mukarramov "bo'g'in" so'zi tilshunoslikda, ya'ni fonetikada termin, "yosh bo'g'in", "qo'l bo'g'inlari" birikmalarida inson tanasining a'zolari sifatida ekanligini ta'kidlaydi¹⁴.

V.G.Gak yuqorida ko'rsatilgan maqolasida termin bilan so'zning farqli munosabatini ifoda planiga ko'ra uch tipga bo'lib o'rganish mumkinligini ko'rsatadi:

- 1) bir planli leksik birlik- oddiy so'z;
- 2) bir planli leksik termin;
- 3) ikki planli leksik birlik- bir o'rinda oddiy so'z, ikkinchi bir o'rinda termindir¹⁵.

V.G. Gakning fikricha, birinchi tip leksik birliklar doimo o'zining oddiy

⁹ Кутина Л.Л. Формирование терминологии физики в России. М.-Л.: Наука, 1966. -267 с ; Левковская К.А. Теория слова, принципы ее построения и аспекты изучения лексического материала. -М.: Высшая школа, 1962. - 99с; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии. -М. ; 1961. 51с

¹⁰ Реформатский А.А. О'sha maqola

¹¹ О'sha yerda.

¹² Плотовский Р.Г. К вопросу об изучении термина. «Уч. Зап. ЛГУ», №101. Серия филол. Наук. Вып.18. - Л.; 1952. -34с

¹³ Даниленко В.П. Как соядаётся термины // Русская речь. 1967. -№2, С. -58.

¹⁴ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Т: Фан, 1984. - 52 б

¹⁵ Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии // Стилистические проблемы языков науки, терминологии и информатики. ч.1. -М., 1931. -10с.

soʻzligini saqlaydi. Ular ilmiy adabiyotlar tilida ham termin sifatida qoʻllanmaydi. Bu soʻzlarga atoqli otlar, olmosh va yordamchi soʻzlar kiradi.

Ikkinchi tip birliklar haqiqiy terminlardir. Ular kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham oʻzlarining terminologik xususiyatini saqlay oladi. Ular oddiy soʻz bilan yonma-yon qoʻyilganda ham oʻzlarining oddiy soʻzdan uzoqlashganligini, begonalashganligini namoyon qilib turadi. Bunday soʻzlar *tangens, sinus, affiks, prefiks, oqsil, oltingugrt, umurtqasizlar* tipidagi soʻzlardir.

Uchinchi tipdagi soʻzlar bir oʻrinda oddiy soʻz, ikkinchi bir oʻrinda termin maʼnosida qoʻllanishi mumkin. Bunday terminlar koʻpincha oʻz til imkoniyatlari zaminida hosil boʻladi: *soʻz, gap, kuch, boʻgʻin, maydon, uchburchak, ildiz, toʻqima* kabi.

Gilam nomlari ham leksema, ammo bu nomlar gilamchilik sanoati texnologiyasida ilmiy termin vazifasini oʻtashi mumkin. Xalq soʻzlashuv tilining meʼyoriy vositasi sifatida oddiy soʻzdir. Shuningdek, nutq elementi sifatida har xil kontekstlarda qoʻllanilishi va keng isteʼmoldagi leksik birliklar sifatida faoliyat koʻrsatadi. Bunday leksik birliklar ommalashib, barchaning nutqida qoʻllaniladigan, hammaga tushunarli soʻzlarga aylangan. Shu sababli ham, bu leksik-grammatik birliklarga gilamchilik atamalar terminini qoʻllashni maqsadga muvofiq deb bildik. Baʼzi hollarda biz oʻrgangan atamalar faqat leksik birliklar va leksemalardan tashkil topmasdan, ularning tarkibida soʻz birikmalariga, tarkibli birikmalarga, baʼzan gapga teng birliklar ham koʻzga tashlanadi.

Hozirgi, yaʼni ilmiy-texnik taraqqiyot davrida, axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga jadal surʼatlar bilan kirib borayotgan XXI asrda adabiy tilning xalq tiliga, dialektlarga taʼsiri katta boʻldi. Bu, oʻz navbatida, adabiy til taʼsirida xalq tilida mavjud boʻlgan baʼzi vositalarning mavjud boʻlishiga, ularning asta-sekin yoʻqola borishiga sababchi boʻladi. Shunday leksik qatlamlardan biri, shubhasiz, oʻzbek tilidagi gilamchilik nomlaridir.

Oʻzbek tilshunosligida tarmoq atamalari birmuncha oʻrganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohada koʻp[gina nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari

himoya qilingan¹⁶. Vaholanki, Xorazm o'zbek shevalarida hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydigan yoki ma'no jihatdan farqlanadigan juda ko'p so'z-terminlar mavjud¹⁷. Shu bois, bu hudud o'zbek shevalaridagi gilamchilik nomlarining hududiy jihatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Xorazmdagi o'zbeklar etnik jihatdan ikkita katta guruhga - qipchoq va o'g'uzlarga mansubdir. O'zbeklarning bu xildagi ikkita etnik guruhga bo'linishi, ularning til jihatdan farqlanishiga –o'zbek tilining qipchoq va o'g'uz shevalari mavjud bo'lishiga sabab bo'lgan¹⁸. Mazkur shevalar ayrim lingvistik belgilariga ko'ra, bir-biridan bir qadar farqlanadi. Shu sababli ham o'rganilayotgan hudud shevasidagi leksik xususiyatlarni o'rganish, o'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

Shuningdek, o'rganilayotgan hududda o'zbeklar turkiy xalq vakillari-qoraqalpoq, qozoq, turkmanlar bilan yondosh yashashadi. Mazkur holat hududdagi o'zbek shevalariga turkiy elat va xalq tillarining ta'siri katta bo'lishiga olib keladi. Shunday ekan, o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalaridagi sohaviy so'zlar va nomlarni tadqiq etish, o'zbek tili lug'at tarkibining unutilayozgan til elementlarini, til tarixidagi noaniq leksik-grammatik hodisalarni o'rganish uchun imkon yaratadi. Bu esa tadqiqot mavzuining dolzarbligini belgilaydi.

Ma'lumki, tilshunoslikda soha atamalarining turli jihatlarini yoritishga doir anchagina izlanishlar olib borilgan. Ushbu muammolarni tadqiq etishga tilshunoslardan N.Dmitriyev, N.Baskakov, A.Reformatskiy, V.Danilenko, N.Mamatov, S.Ibrohimov, M.Abdiyev va boshqalar munosib hissa qo'shdilar.

Turkiy tillar materiallari asosida uning terminologik tizimini o'rganish o'tgan asrning 50 –yillaridan boshlandi. Bu davrgacha qator turkiy tillarda har xil

¹⁶ Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1955. - 16 с; Ибрагимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах ферганских говоров): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. - Ташкент, 1961. - 163 с; Абдиев М. Сохавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунаrlари материаллари асосида): Филол. фанлари доктори ... дис. - Тошкент, 2004. - 262 б.

¹⁷ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. -4 б.

¹⁸ Ишаев А. Ko'rsatilgan asar.-5 б.

sohalar bo'yicha terminlar yuzaga keldi, darsliklar nashr qilindi, rus tilidan ilmiy - texnik adabiyotlarning, turli – tuman o'quv qo'llanmalarining tarjima qilinishi sohalar terminologiyasining shakllanishiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi va 50 – yillargacha shakllanib ulgurgan, katta lisoniy materiallarni o'zida jamlagan tarmoqlar terminlarini o'rganish, ularni tartibga solish tilshunoslik fani oldiga qator vazifalarni qo'ydi. Shu tariqa milliy turkiy tillarda terminologiya masalalarini tadqiq qiluvchi dastlabki ilmiy ishlar maydonga keldi. Bunday ilmiy ishlarning ilk namunalariga N. A. Baskakov¹⁹, N.K. Dmitriyev²⁰, F.S.Faseevlarning²¹, keyinchalik turkiy tillar materiallari asosida terminlarni o'rganish bo'yicha B.U.Oruzbayeva²², R. A. Urekenova²³, M. Sh. Gasimovning²⁴ ishlarini ko'rsatish mumkin.

Terminlarni o'rganish borasida yangi qadamlar qo'yildi, ya'ni ilmiy terminologiyaga oid²⁵, kasb hunarga oid²⁶, o'zbek tili leksikasiga oid tadqiqotlar²⁷,

¹⁹ Баскаков Н.А. Современное состояние терминологии в языках народов СССР –М., 1959. -27с

²⁰ Дмитриев Н. К. Грамматическая терминология в учебниках родного языка. –М.: АПН РСФСР, 1955.

²¹ Фасеев Ф.С. Татар телендэ терминология. Казан: 1969.

²² Орузбаева Б.У. Словообразование в киргизском языке. –Фрунзе: 1964.

²³ Урекенова Р.А. Образование терминов в казахском языке. – Алма –Ата: 1980

²⁴ Гасимов М.Ш. Основы терминологии азербайджанского языка: Автореф. Дис. ...д-ра фил. Наука. – Баку:1972; Азербайжан дили терминологијасының асаслари. – Баку: Елм, 1973

²⁵ Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. Дис. ...канд. фил. наук.- Т.: 1955. Жамолхонов Х. Ўзбек ботаника терминологиясининг таркиб топиши ва ривожланиш тарихидан: Фил. ф. н. ...дисс. – Т.:1968; Рамазанов М. Из истории формирования и развития узбекские математической терминологии: Автореф. дис. ...канд. фил. наук.- Т. : 1973; Азизов С. Лексико-грамматическое исследование музыкальной терминологии узбекского языка: Автореф. дис. ...канд. фил. наука.-Т.: 1981; Касымов А. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. –Т.: 1982; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Автореф. дис. ...канд. фил. наук.- Т. : 1986; Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка: Автореф. дис. ...док. фил. наук.-Т.: 1988. -43 с.

²⁶ Ибрахимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах ферганских говоров.) Автореф. дис. ...д-ра фил. наука.- Т 1961. Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Ф. ф. н. ...дисс. – Т.: 1994

²⁷ Асомутдинова М. Ўзбек тилида кийим-кечак ва унинг қисмлари номлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс.- Тошкент, 1970.Нугманов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: . Автореф. дис. ...канд. фил. наук. –Т. 1971; Буранов М. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпакии: . Автореф. дис. ...канд. фил. наук.Т. 1972;Ходжамбердиев Т. Животноводческая лексика узбекского языка: Автореф. Дис. ...канд. фил. Наука- Т. 1975; Хусаинова З. Названия свадебных обрядов и церемоний в узбекском языке: Автореф. дис. ...канд. фил. наук- Т. 1983; Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзССР Институт языка и литературы имени А.С.Пушкина, 1983; Мирхоликов З.Ўзбек тилида балиқ номларининг луғавий-маъновий ва грамматик хусусиятлари: фил.ф.н...дисс. –Т.:1991; Саидова М.Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили: фил.ф.н...дисс. –Т.:1995.

shuningdek, ensiklopediya, izohli lug‘atlar²⁸ birin – ketin maydonga keldi.

O‘zbek tili tarmoqlar terminologiyasi bo‘yicha yuzaga kelgan dastlabki tadqiqot 1955- yilda himoya qilingan N. Mamatovning “O‘zbek paxtachilik terminologiyasi” nomli ishidir²⁹. Ishda paxtachilik bilan bog‘liq atamalar tarqqiyoti, ularning tasnifi, atamalarning so‘z, so‘z birliklaridan farqli jihatlari, atamaning ta‘rifi, O‘zbekistonda paxtachilikning rivojlanish tarixi va u bilan bog‘liq holda yangi atamalarning paydo bo‘lishi, o‘zbek paxtachiligi atamashunosligining boyishiga ichki va tashqi manbalarning hal qiluvchi mavqei atroflicha tahlil qilingan.

Keyinchalik Farg‘ona shevalaridagi kasb – hunarga oid so‘zlarni o‘rgangan S. Ibrohimovning tadqiqoti maydonga keldi³⁰. U bu ishida kasb –hunar leksikasini qanday to‘plash, ilmiy tahlil qilish, tasnif qilish bo‘yicha namuna yaratdi va keyingi tadqiqotlarda bu tajribaga asoslanish an‘anaga aylanib qoldi.

Ushbu qisqacha obzorning o‘ziyoq ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunosligida tarmoqlar terminologiyasini o‘rganish bo‘yicha yetarli tajribalar to‘plangan, qator sohalar terminlari ilmiy tahlildan o‘tkazilgan va ularning o‘zbek adabiy tilidagi o‘rni, mavqei tasvirlab berilgan. Ammo mazkur sohadagi barcha tadqiqotlar poyoniga yetgan, unga xos barcha muammolar to‘la o‘z yechimini topgan degan xulosaga olib kelmaydi. Ayniqsa, sohaviy leksikaning har xil hududlaridagi ko‘rinishlari, xarakteri, ularning turli tillar ta‘siridagi holati masalasi hali o‘z yechimini kutayotgan ilmiy tadqiqotlar olib borish mumkin bo‘lgan katta masalalardan biridir.

Xorazmda gilamchilik sanoatining yil sayin taraqqiy etib kelayotganini va hali bu sohaga oid so‘z va terminlar o‘zbek tilida alohida tadqiqot obyekti

²⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Икки томли: 1-т (Москва: Рус тили, 1981), 2-т (Москва: Рус тили, 1981).Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбек миллий энциклопедияси”, I жилд, А-Д.Т.: 2006, II жилд. Е-М.- Т.: 2006, III жилд Н-Т. Т.:2007.

²⁹ Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1955.

³⁰ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. - Тошкент: ЎзССР ФА, 1959. II-III; Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах ферганских говоров): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. -Ташкент, 1961.

bo‘lmaganligini hisobga olib, biz shu mavzuga qo‘l urishga jazm qildik.

Bizning ushbu mavzuni tanlashimizdan maqsadimiz shuki, o‘zbek adabiy tilining bir tarmog‘i bo‘lgan Xorazm shevalaridagi kasb- hunarga oid atamalarni to‘plab, tartibga solib, ularni leksik – semantik va grammatik jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zbek adabiy tilidagi o‘rnini belgilash va qo‘limizdan kelgancha, gilamchilik lug‘atini tuzishdir.

Kasb-hunarga oid so‘z va atamalar qadimgi yozma yodgorliklar tilida, klassik adabiyot materiallarida, shu jumladan, shevaga oid asarlarda, xususan, dealektal lug‘atlarda ham ko‘plab uchraydi. Biz Xorazm shevalariga oid asarlarni³¹ o‘rganish bilan bir qatorda, bevosita Xiva gilam to‘qish kombinati ishchi va xizmatchilari bilan suhbatlashib, gilam uchun zarur bo‘lgan xomashyo nomlari, ish qurollari, dastgoh va uning qismlarining nomlari, gilam to‘qish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar, gilam turlari va ularga solinadigan naqsh turlarining nomlari, umuman shu kasb bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarning barchasini yozib olishga harakat qildik. Lekin hali bu bilan biz shu sohaga oid barcha so‘z va terminlarni to‘la jamladik, deb ayta olamiz. Chunki bu ish shu sohani ilmiy o‘rganishga qo‘yilgan dastlabki qadam, xolos.

³¹ Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1961; О. Мадрахимов Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1973; З. Дўсимов. Хоразм топонимлари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1985; Д. Абдурахмонов, Т. Содиқов, Ш. Носиров, М. Турабова. Ўзбек шевалари лексикаси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1991; А. Ишаев. Ўзбек диалектал лексикографияси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1990.

I.BOB. Gilamchilik atamalarining ma'noviy guruhlari

Ma'lumki, xalqlarda ishlab chiqarish sanoatining turli tarmog'i rivojlanishi u yoki bu territoriyaning ijtimoiy, tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari bilan bog'liq. Shu sababli O'rta Osiyoning ko'chmanchi xalqlarida gilam va turli tipdagi naqshli poloslar ishlab chiqarish, o'troq xalqlarda esa kashtachilikning rivojlanishi, Qozog'istonda chorvachilikka xos kigiz, gilam va teri kabi mahsulotlarni ishlab chiqarish eramizdan oldingi I asrning II yarmidayoq mavjud bo'lganligi manbalarda xabar qilinadi.³²

1.1.Gilamchilik leksikasining o'rganilishi

O'rta Osiyo xalqlari san'atini birinchi bo'lib tadqiq etgan olimlardan N. Burdukov – Sharq gilamchiligi badiiy ijodining eng qadimiy formalaridan bo'lib, u bilan faqat ayollar shug'ullanadilar³³, deb yozadi. Rostdan ham, bu traditsiya gilam to'qish qo'l mehnatiga asoslangan joylarda hozirgacha ham, asosan davom etib kelmoqda.

Sharq gilamchilik san'ati bilan Yevropa olimlari ko'pdan qiziqqa boshlagan bo'lsalar ham, amaliy san'atning bu tarmog'iga san'at materialli sifatida qarash va haqiqiy ilmiy tadqiqot ishlari olib borish XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagina boshlandi. Bu borada A. A. Bogolyubovning O'rta Osiyoga sayohati davrida to'plagan kolleksiyalari asosida tuzgan albomi³⁴ diqqatga sazovordir. O'rta Osiyo xalqlari gilamchilik san'ati tarixi, bu san'atning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga A.A.Semenovning “Rus Turkistoni gilamlari”³⁵ asari ham muhim ahamiyatga ega. O'rta Osiyo gilamchilik san'atiga oid ishlar orasida A. Felkerzamning ishi san'atning bu tarmog'iga xos tarixiy taraqqiyot yo'llarini keng yoritishi va chuqur analiz qilishi bilan alohida qimmatga ega. A. Felkerzamning ko'rsatishicha, O'rta Osiyo gilamchiligi uch asosiy gruppaga bo'linadi va bu san'at

³² Т. К. Басснов. Прикладное искусство Казахстана, К. Т. И.Х. Л. , Алма –Ата, 1958, 11-bet.

³³ Н. Бурдуков. Каталог, его собрания на выставке, СПб., 1904, стр. 59.

³⁴ А. А. Боголюбов. Ковровые изделия Средней Азии из собрания, составленного А. А. Боголюбовым, вып. 1-2, СПб., 1908-1909.

³⁵ А. А. Семенов. Ковры русского Туркестана. «Этнографическое обозрение», 1911, № 1-2.

bilan, asosan uch gruppaga ko'chmanchi urug'lar –turkman, o'zbek va qirg'izlar shug'ullanadilar³⁶. Haqiqatan, gilamchilik bilan O'rta Osiyoda hozir ham turkmanlar, o'zbeklar, qirg'izlar va qoraqalpoqlar shug'ullanadilar. Lekin gilamchilik san'atining u yoki bu xalqda qay darajada qadimiy (azaliy) ekanligini aniqlash, aftidan, ma'lum elatlarning etnogenezi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, bu masala amaliy san'at tarixida eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi³⁷.

O'rta Osiyo gilamlarini o'rganishga sobiq sovet etnograf olimi S. M. Dudinning xizmatlarini alohida ta'kidlash zarur. S. M. Dudin³⁸ O'rta Osiyoning turli joylari – rayonlarida bo'lib, gilamchilikka oid juda katta, juda boy material to'playdi va shu materiallari asosida O'ra Osiyo gilamchilik san'atining butun boyligi, nafisligini namoyish etadigan tadqiqot ishi yaratadi. Ishda O'rta Osiyo gilamlari tasnif etiladi, qator jadvallar beriladi. Tasnifda asosiy e'tibor buyumlarning naqsh kompozitsiyalariga qaratiladi. Xullas, tarixchi –etnograf, san'atshunos olimlarning bu tipda masalaga qiziqishlari bir tomondan O'rta Osiyoda bu san'at tarmog'ining kamolotidan darak bersa, ikkinchi tomondan gilamchilik mahsulotlarining O'rta Osiyo xalqlari hayotida naqadar muhim rol o'ynaganidan dalolatdir.

O'rta Osiyo gilamlari, xususan, gilamchilik san'atiga oid buyumlar haqida juda qiziqarli ma'lumotlar bergan italyan sayyohi Marko Polo³⁹, gilam mahsulotlari ko'chmanchilar o'tovining asosiy jihozi, ro'zg'or buyumlarining zaruriy komponenti ekanligini, hatto o'tovning har bir qismi uchun alohida formalil gilam to'qilgani yoxud gilamchilik mahsulotlarining har biri o'ziga xos funktsiya bajarishini yozadi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida yashovchi xalqlar o'tmish davrda ko'chmanchi hayot kechirganlar. Ko'chmanchilarning asosiy mashg'ulotlari esa

³⁶ А. Фелькерзам. Старинные ковры Средней Азии, ж. «Старые годы», 1915, июль, стр. 338.

³⁷ Д. Т. Уметалиева. Киргизский ворсовый ковер. Фрунзе, Изд-во «Илим», 1966, стр.10-11.

³⁸ С. М. Дудин. Ковровые изделия Средней Азии. т. VII, Л., МАЭ, 1928.

³⁹ Путешествия венецианца Марко Поло в XIII век, перевод с нем., М., 1863.

chorvachilik bo'lgan. Yetishtiriladigan asosiy mahsulotlardan sanalgan – jundan to'qilgan gilam-palos buyumlari ko'chmanchi qabilalarning ehtiyojini qondirgan; gilamlar, naqshli kigizlardan o'tovlarning ustini yopish, yerga to'shash hamda to'rt g'ildirakli aravalarga soyabon qilish uchun foydalanganlar. O'tovning ichi va tashqarisini gilamlar, turli naqshli buyumlar bilan bezatganlar. Bular bezakkina bo'lmay, yozda quyosh nuridan, changdan, qishda sovuqdan saqlagan. O'tovning ichkarisi – yeriga yumshoq va issiq namat, palos va gilamlar to'shalgan. Uyning boshqa ko'p jihozlari, chunonchi har xil mebel vazifasini bajaruvchi buyumlar – sandiqlar, sumkalar, qoplar, xurjunlar, ot yopiqdari gilam tipida to'qilgan. Jundan yigirilgan iplardan turli kiyim kechaklar ham tikkanlar.

Chorvador xalqlarda gilam to'qish san'atining taraqqiyoti yana shu bilan izohlanadiki, ularda gilam –palos mahsulotlari uchun zaruriy xomashyo doimo yetarli bo'lgan. Shularga ko'ra, xalqimiz gilam to'qish san'atining badiiy traditsiyalari nihoyatda yuqori bo'lgan. Hatto, bu san'at chorvador xalqlar hayotida estetik talablarni qondiruvchi muhim vositalardan biriga aylangan.

Yuqorida eslatilgan manbada italyan sayyohi Marko Polo O'rta Osiyo gilamlarining chiroyi haqida gapirib, turkman gilamlariga juda katta baho beradi: "Turkman gilamlari sharqdagina emas butun jahonda eng nozik va chiroyli gilamdir".

O'zbek madaniyatining ildizlari juda qdim zamonlarga, barcha O'rta Osiyo xalqlari uchun mushtarak bo'lgan madaniyat yodgorliklariga borib taqaladi⁴⁰. Binobarin, dunyo masshtabida eng chiroyli gilam to'qigan turkmanlarning qo'shnisi, qarindoshi bo'lgan o'zbeklarning ham madaniyat, san'at olamida, shuningdek gilam to'qish san'ati bobida, so'zsiz, o'ziga xos qadimiy traditsiyalari bo'lgan.

Manbalarning ko'rsatishicha, O'rta Osiyoda gilam, sholcha - palos to'qish va turli tipdagi naqshli kigiz ishlab chiqarish san'ati chorvachilik bilan

⁴⁰ Н. Маллаев. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. "Тошкент" адабиёт ва санъат нашриёти, 1974, 7- бет.

shugʻullanuvchi xalqlar faoliyati bilan bogʻliq ⁴¹ boʻlib, juda uzoq tarixga ega. Oʻrta Osiyo xalqlari orasida gilam – palos buyumlaridan keng foydalanish – ularning oʻziga xos yashash sharoiti, hayot tarzi bilan izohlanadigan qadimiy madaniy traditsiyadir. Koʻp asrlik tarixga ega boʻlgan bu sanʼat xalqimizning moddiy madaniy tarixini yoritishda muhim manbalardan sanaladi.

Yozma manbalar – tarixiy faktlar, til faktlari chorvachilik ashyolari bilan bogʻliq boʻlgan kasb –kor va sanʼat tarmoqlari, jumladan gilamchilikni Oʻrta Osiyodagi boshqa xalqlar qatori oʻzbeklar hayotida ham muhim oʻrin egallanganligini koʻrsatadi. Lekin Oʻzbekistonda amaliy sanʼatning bu tarmogʻi qachon paydo boʻlganligini aniq aytish qiyin.

Taniqli tarixchi- etnograf, sanʼatshunos olimlarning bergan maʼlumotlariga qaraganda, taqir, yaʼni patsiz gilam – palosning turli xillari juda koʻp xalqlar orasida tarqalgan boʻlsa ham, patli gilam ishlab chiqarish qadimdan boshlab, sanoqligina joylarda, jumladan, Kavkaz, Oʻrta Osiyo va markaziy Osiyoda rivojlangan. Eng qimmatbaho patli gilamlar Vavilon, Suriya, Eron va Kavkazda toʻqilgan. Ammo bu maʼlumotlar na Oʻrta Osiyo va na Oʻzbekistonda gilamchilik sanʼatining qachon paydo boʻlgani haqida biror fikrga kelish imkoniyatini bermaydi.

Marhuma etnograf olima V. G. Moshkova materiallari asosida tarix fanlari kandidati A. S. Morozova tomonidan nashrga tayyorlangan “Oʻrta Osiyo xalqlari gilamlari” kitobida ⁴² masala ikki manba, yaʼni arxeologik qazilma materiallari va tarixiy adabiyotlar asosida oydinlashishi mumkin, deb koʻrsatiladi. Bizningcha, bularga yana uchinchi manbani ham qoʻshish zarurkim, bu lingvistik faktlardir.

Gilamchilik sanʼati uchun zaruriy xom ashyo mahsulotlari, ishlab chiqarish qurollari nomlarining tilimizda qoʻllanish tarixini yozma yodgorliklar tili asosida oʻrganish, dialektal variantlarni chogʻishtirish turli davrlardagi lugʻatlarning

⁴¹ Б. П. Денике. Прикладное искусство Средней Азии, в сб., «Художественная культура Советского Востока», АCADEMIA, М –Л., стр. 68-69.

⁴² В. Г. Мошкова. Ковры народов Средней Азии конца XIX начала XX в. Ташкент, Изд-во «Фан», 1970, стр. 11

materiallari bilan qiziqish- masalani ma'lum darajada oydinlanshtirishga yordam beradi.

Arxeologik qazilma materiallaridan ma'lum bo'lishicha, yangi eragacha bo'lgan bir minginchi yillar o'rtalariga taalluqli qadimgi patli gilam va paloslarning namunalari Oltoy tog'lari qo'rg'onlaridan topilgan.⁴³ Shuningdek, O'rta Osiyo territoriyasi – Xorazmda ham arxeologlar noyob yodgorliklarni qo'lga kiritganlar⁴⁴.

Arxeologik ekspeditsiyalarning yana birida Shimoliy Mo'g'ulistonning Noin –Ula tog'ida sarkarda maqbarasidan yung chodir va boshqa naqshli buyumlar topilgan. Ayrim tekshiruvchilar bu topilmalarni eradan oldingi I asrga⁴⁵, boshqalari esa eradan oldingi II asrlarga⁴⁶ taalluqli deb hisoblaydilar. Oltoydagi Pazirik qo'rg'onidan 1948- yilda kovlab olingan, hozir Leningraddagi Ermitajda saqlanayotgan gilam, ma'lumotlarga qaraganda, eramizdan oldingi I asrda to'qilgan. Taxminlarga ko'ra, qo'y junidan to'qilgan bu qadimiy gilam 2500 yilcha yer ostida muzlikda yotganiga qaramay, juda yaxshi saqlangan.

Ayrim tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, arxeologik qazilma materiallari, tarixiy yozma yodgorliklar Qozog'istonda chorvachilik ashyolari bilan aloqador bo'lgan kigiz, gilam, teri mahsulotlari ishlab chiqarish eramizdan oldingi I asrning II yarimlaridayoq bo'lganligidan dalolat beradi⁴⁷. Tarix va arxeologiya materiallariga asoslangan bu tipdagi ma'lumotlar O'zbekistonning chorva rayonlariga ham bevosita aloqadordir.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda gilam, sholcha to'qish va turli tipdagi naqshli kigizlar ishlab chiqarish san'ati ko'chmanchi xalqlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ko'chmanchilar yung, teri kabi xom ashyolardan juda qadim zamonlardan boshlab foydalana boshlaganlar.

⁴³ БСЭ, XXI, стр. 508. С.И.Руденко қазилма ишларидан.

⁴⁴ С. П. Толстов. Хорезмская археолого – этнографическая экспедиция. ж «Советская археология», 1958, №1, стр. 129-130

⁴⁵ К. В. Тревер. Памятники греко- бактрийского искусства. М-Л., Изд –во АН СССР, 1940, стр. 141-148.

⁴⁶ Н. И. Воробьев. Некоторые данные о технике орнаментации тканей казанских татар. Материалы центрального музея ТССР, № 2, Казань, Татполиграф, 1930, стр. 18-19.

⁴⁷ Т. К. Басенов. Прикладное искусство Казахстана, Алма- Ата, КГИХЛ, 1958, стр. 11.

Yuqorida qayd etilgan arxeologik qazilma yodgorliklari orasida mahalliy xarakterga ega bo'lgan buyumlarning mavjudligi, yoxud ularning naqsh kompozitsiyalari bilan hozirgi kunda to'qilayotgan gilamchilik mahsulotlari o'rtasidagi umumiylik xususiyatlari O'rta Osiyoning chorvador aholisi o'rtasida gilamchilik san'ati ancha qadimiy ekanligidan darak beradi.

Tarixiy asarlarda bayon etilgan noyob fikrlar ham bu mulohazani bir qadar tasdiqlaydi. Chunonchi, VII asrga oid Xitoy manbalarida Naxshab hozirgi Qarshi aholisi shohi, jun va har xil gulli gilam to'qiydi⁴⁸, deb ko'rsatiladi. Mashhur "Buxoro tarixi" kitobining avtori Abubakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy Buxoroda X asrda gilam mahsulotlari maxsus korxonada to'qilishini⁴⁹ qayd qiladi. Klavixo kundaligida ham Temur saroyini bezagan juda ko'p sonli chiroyli gilamlar haqida eslab o'tiladi⁵⁰.

Nihoyat O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda, gilamchilik san'atining qadimiyligi masalasini, uchinchi manba deb ko'rsatganimiz, til faktlari ham birmuncha tasdiqlaydi.

Kigiz bosish va gilam –palos to'qishda foydalaniladigan asosiy xom mahsulot nomlari va umuman gilamchilikka oid atamalarni qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda, Mahmud Qoshg'ariy va V. Radlov lug'atlarida, P. M. Melioranskiyning "Arab filolog" asarida, "Qadim turkiy lug'at" da (DTS), XIII – XIV asr yodgorligi "Attuhfa" lug'atida va boshqalarda uchratamiz. Masalan, *kigiz* va *yung* so'zlari manbalarda quyidagicha talqin etiladi: *ki (d) iz* -koshma (Malov, 368)⁵¹, *kiziz* – *kigiz*, *namat* – *voylok* (M K, I, 347-2)⁵², *kiwiz* – *uyga*, *yerga* solinadigan *keng* va *enli palos* – *bolshoy palas*, *koshma* (MK, I, 347 -3); *kizizik jyn* – *kigizga mo'ljallangan yung* (MK, I, 465); *ku uz kiyiz* - 8a - 2

⁴⁸ Иакинф Бичурин . Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена, М. – Л., Изд – во АН СССР. 1950, стр. 316-317.

⁴⁹ Наршахи. История Бухоры , перев. Лыкошына, Ташкент, Тип- лит, Фиг., 1897, стр. 29.

⁵⁰ Рюи – Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканд..., СПб., 1881. стр. 257-310.

⁵¹ С. Е. Малов. Пмятники древнетюрское письменности, М – Л., Изд-во АН СССР. 1951, стр. 394.

⁵² Махмуд Қошғарий. Девону лугатит турк. Тошкент, "Фан". 1960.

(*Attuhfa*” 223) ⁵³, *yung jung* -16 b – 13 (*Attuhfa*”, 207); *jyng* – *sherst*, *pux* (DTS, 286) ⁵⁴, *jyngjar*—*vsyakaya sherst* (DTS, 286); *jubun yung* – 22 a – 11 (*Attuhfa*”, 205), *janaq yanoq*, *yung* –38b -2 (*Attuhfa*”, 198); *jyng* --*sherst*, *perya*, *yungchi jyngchi* –*yung savovchi*, *yung tituvchi* (Mel. 67, 14, 58,4,0119) ⁵⁵; *yung jyng* so‘zi *uyg‘ur*, *chig‘atoy*, *oltoy* va *boshqa* *tillarda sherst*, *pux*, *perya*; *jyng chopon* –*sherstyanoy chulok yungchi jyngchi* so‘zi esa usmonli turk tilida *fabricant*, *yung bulan savdo qiluvchi* (Radlov, 111, 597-598) ⁵⁶. Gilam-palos to‘qish va kigiz bosishda jun tolalarini ota – bobolarimiz turli o‘simliklar ildizidan solinadigan tabiiy ranglar bilan bo‘yaganlar. Bo‘yoq so‘zi manbalarda: *boja* -- *krasit* (Mel, 27, 14, 37, 15), *bo‘yoqchi bojachy* – *krasilshik* (Mel. 58, 2, 082) ⁵⁷; *bo‘yoq bajaq* – 19b—12 (*Attuhfa*”, 179), *bojav bo‘yoq* –84 a -4 (*Attuhfa*”186), *boiatuvchi bo‘yatuvchi* 63a –6 (*Attuhfa*”, 18 6) tarzida berilgan. Shunisi xarakterliki, O‘rta Osiyo, shuningdek, o‘zbek hunarmandchiligida gilam – palos kabi jundan to‘qiladigan buyumlar juda yuqori san‘at va mahorat talab qiladigan mahsaqqatli qo‘l mehnatiga asoslangan sohadir. Asrlar davomida nasldan-naslga o‘tib kelayotgan bu kasb egalarining asosiy ish quroli primitiv yog‘och stanok va uning yordamchi qismlari –charx, dug, urchuq kabi asboblardir. “Devon” da *dug* so‘zi *jik (jig)* – *dug*, (MK. 158-3; 182 - 26) ⁵⁸, “*Attuhfa*” asarida *ig*—34a – 9 يك (*Attuhfa*” - 211) shaklida berilgan.

Joylarda *stanok*, *o‘rmak*, *do‘kon* kabi nomlanadigan bu *stanok* tarixchi, etnograf olimlarning ko‘rsatishicha, juda keng tarqalgan bo‘lib, butun Sharqqa – Shimoliy Afrika beduinlaridan tortib to Kichik Osiyoliklargacha ma‘lumdir ⁵⁹.

Xorazmda gilam to‘qish tarixi juda qadimiydir. Bu kasb terminlarining

⁵³ Аттухфатуз закияту филлуғатит Туркия. Таржимон ва нашга таёрловчи С. М. Муталлибов, Тошкент, “Фан”, 1968.

⁵⁴ Древнетюркский словарь, Л., Изд-во «Наука». 1969.

⁵⁵ П. М. Мелиоранский. Араб филолог о турецком языке, СПб., 1900

⁵⁶ В.В. Радлов. Опыт словаря тюркских наречий, т. III СПб., 1893.

⁵⁷ “Девону луғатит турк”. Индекс, Тошкент, “Фан” 1967.

⁵⁸ O‘sha asar

⁵⁹ Р. Карутц. Среди киргизов и туркменов Мангышлака. СПб., 1911, стр. 57-58.

paydo bo'lish tarixi ham juda eskidir. Ammo biz bu kasb leksikasining tarixiy taraqqiyotini to'la yoritish uchun yetarli ma'lumotga ega emasmiz. Gilamchilik leksikasi gilamchilik ishining ko'p protsessga bo'linishini va ular bir qancha terminlar bilan ifodalanishini ko'rsatadi. Qadimda gilamni taxminan miloddan avvalgi 5-6 ming yilliklarda to'qila boshlangan va dastlabki to'qimachilik dastgohlari paydo bo'lgan.

Xorazm va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarda gilamchilar eskicha gilam to'qish dastgohini do'kon deb ataganlar.

Dastlab qadimda gilamning *bosma gilam*, ya'ni shevada *kigiz* deb ataluvchi turi paydo bo'lgan. Gilamning bunday turini to'qish turkman gilamchiligida ancha rivoj topgan. Gilam o'g'uz shevalarida *g'a:lbı*, turk, ozarbayjon tilida *xalbi*, turkman tilida *xa:lbı* deb yuritilgan.⁶⁰

Gilam to'qish kasbi – badiiy to'qish turi, hunarmandchilik sohalaridan biri. Qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mavjud. Ayniqsa, chorvachilik bilan shug'ullangan xalqlarda keng rivojlangan. Gilamni o'simlik (paxta, zig'ir, jun) dangina tayyorlaganlar. Hozir esa sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. Gilam o'tmishda yer bag'irlab yotiq holda o'rnatilgan pastak dastgohlarda to'qilgan. Gilamchilik yaxshi rivoj topgan joylarda esa to'quv dastgohlarining ancha mukammallashtirilgan va bir necha to'quvchi yonma – yon o'tirib birdaniga to'qiyveradigan keng o'q (g'altak) li xillari yasalgan. Qo'lda gilam to'qish O'rta Osiyoda, ayniqsa, Turkmanistonda keng rivojlangan. Bu g'oyat sermashaqqat ish bo'lib, yaxshi mutaxassis 1 m² patli gilam to'qish uchun bir oyga yaqin vaqt sarflaydi. Shuning uchun ham qo'lda to'qilgan gilamlar qimmat bo'ladi.

Gilamlar *kalta patli* (3-7mm) va *uzun patli* (7-17mm) qilib to'qiladi. O'zbek gilamlarini qo'y va tuya junidan, paxta ipidan to'qiydilar. Turkmanlar ipak ham ishlatadilar.

Gilam – badiiy to'qima buyum. U asosan polga va bo'yra ustiga to'shaladi,

⁶⁰ О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси, Тошкент: Фан. 1973, 126-б.

xonani bezash uchun devorga osiladi. Yozma tarixiy manbalar va arxeologik qazilmalar gilamni qadimdan ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Bobil, Assuriya, Midiyada, keyinroq Hindiston, Eron va Turkiyada to'qilgan rangdor gilamlar mashhur bo'lgan. Kavkaz, O'rta Osiyo, Rossiya, Ukraina, Moldaviya, Bolgariya, Ruminiya gilamlari mamlakatimiz xalqlari o'rtasida ro'zg'or ashyosi va badiiy buyum sifatida keng tarqalgan⁶¹.

Gilamning to'qima (guli to'qiladigan) va tikma (tayyor buyumga tikiladigan) va bosma (guli bo'yab bosiladigan) xillari bor. O'zbekistonda to'qima gilamning ikki turi- patli va patsiz (yoki palos) gilam tayyorlanadi. Gilamlarning naqsh turlari xilma-xil rangda va turli-tuman shaklda bo'lib, bunda asosan geometrik shakllardan, qisman o'simlik shakllaridan foydalaniladi. Bu gul- naqshlar, odatda, maxsus mutaxassis rassomlar tomonidan tayyorlangan eskizlar asosida to'qiladi, bosiladi. Badiiy gilamlar tayyorlashda buyuk kishilarning portretlari, yirik yozuvchilarning mashhur asarlariga chizilgan rasmlar, shuningdek, atoqli rassomlarning rasmlaridan nusxa ko'chirilib, gilamlarning badiiy qimmati oshirilmoqda.

XIX asr oxirigacha gilam to'qishda ishlatiladigan kalava ip o'simliklardan tayyorlanadigan bo'yoqlar bilan bo'yalgan (hozir anilin bo'yoqlardan foydalanilmoqda).

Patli gilamlarni to'qish texnikasi, ayniqsa, murakkab. Gilamchilar leksikasida arqoq nax (ip) deb ataladigan ip ham mavjud. To'qishda arqoqdan tashqari pat hosil qiladigan nax (ip) ham ishlatiladi. Bu ish qo'lda bajariladi.

Hozirgi kunda Xorazm viloyatidagi qo'lda gilam to'qish kombinati, Xonqa palos va gilam buyumlari fabrikasi, Xiva sovg'abop buyumlar fabrikasida esdalik gilamlar to'qish sexi ishlamoqda. Xiva gilamchilik fabrikasi mahsulotlaridan "qashqarcha", "kapsagul", "mariguli", "qirqnaqsh", "xorazmguli" kabi gilamlar xalqqa tanilgan. Ularning yaratilishi tasodif emas, albatta. Gilamning xomaki

⁶¹ ЎзСЭ, 3 –жилд, Тошкент, 1972 й. 340- б.

rasmi, unda tasvirlanadigan naqshlar Toshkentdagi maxsus badiiy konstruktorlik byurosidagi rassomlar tomonidan chizma qilib yuboriladi. Shu chizmani to'quvchi mexanik tarzda gilamlarga ko'chiradi. Ammo shuni tan olish kerakki, gilamlar yuzasidagi ornamentlar o'ta murakkab va vaqttalabdir. Shunday ekan, gilamning badiiy estetik bezalishi, uning yaxlit ko'rinishi chiroyi mutaxassis rassom va tajribali, mohir to'quvchining ijodiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'lumki, o'zbek xalq gilamlari uch turga bo'linadi: *patli gilam*, *uzun patli gilam*, *patsiz gilamlar*dir. Xorazm gilamlari, xususan, Xiva gilam buyumlari patli va patsiz bo'ladi. Toza junli, yumshoq, sernaqsh, chuqur fonli gilamlar patli, ip gazlamadan to'qilgan palos, sholcha va boshqalar patsiz gilam buyumlar hisoblanadi.

Patli gilamlarni respublikamizning turli joylarida har xil nomlanishini uchratish mumkin. Masalan, Buxoroda "*qolin*", turkmanlarda, yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, *xa:lb*, Xorazmliklarda *g'a:lb* kabi. Samarqand, Farg'ona, Toshkent va boshqa viloyatlarda *gilam* deb yuritiladi.

Patli gilamlarning o'zi ikki xil bo'ladi: *to'shama gilam* va *osma gilam*. Hozirgi kunda gilamlarni devorga osiladigani mana bu, to'shaladigan gilam bunisi, deb ajratish qiyin. Chunki toza jundan yoki sun'iy tolalardan to'qilgan qizil, to'q qizil, to'q sariq, jigarrang, fonli naqshdor chiroyli gilamlarni devorga ham osish mumkin, polga ham to'shaladi. Biroq tajriba shuni ko'rsatadiki, sintetik toladan to'qilgan gilamlar arzon, ixcham, yengil va zax o'tkazmaslik xususiyatiga, shuningdek, ranglarining o'ta turg'unligiga ko'ra undan polga to'shab foysalanish to'g'ri.

Gilamalrda tasvirlanadigan syujet –tematikaga qarab, ularning vazifasini aniqlash mumkin.Masalan, gilamda manzara yo portret tasvirlangan. Bunday gilamlarni polga to'shalsa yoki divan, stol, stul ustiga qo'yilsa, bu albatta, didsizlik bo'lar edi.Ularni devorga osish to'g'ri bo'ladi. Bunday gilamlarning o'zi ozchilikni tashkil qiladi. Respublika mahalliy sanoat Vazirligiga qarashli Xiva badiiy suvenir buyumlari fabrikasida to'qib chiqarilayotgan tematik sovg'abop

gilamlar diqqatga sazovordir.

1979- yilda olimpiada ramzi tushirilgan sovg‘abop gilam fabrikadagi gilamchilik sexining birinchi mahsuloti bo‘ldi. Bundan tashqari, fabrika sexida me‘morchilik yodgorliklari, mutafakkir kishilar portretlari (A. Navoiy, Al Xorazmiy kabi) va boshqa rasmlar tasvirlangan rang – barang gilamlar to‘qib chiqarilmoqda. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu gilamlarning barchasi sun‘iy tolalardan to‘qiladi. Shunga qaramay, sovg‘abop gilamlar o‘zining originalligi bilan alohida ajralib turadi. Xivadagi gilamchilik fabrikasida “Xorazm guli” deb nomlanuvchi gilamlar to‘qimoqda. Gilamlar kompozitsiyasida asosan milliy iftixorimiz – paxta tasvirlangan. Shuningdek, Xiva gilamlarida oq yashil, sariq, to‘q yashil, ko‘k ranglar uyg‘unligi sezilib turadi. Ranglarning bunday yorqinligi voha tabiatning issiq tafti, dilxush manzaralari, mahalliy xalq xarakterining ochiqqligi, ularning iliq so‘zlarini eslatgandek bo‘lardi.

Darvoqe, xalqning turmush madaniyati – maishiy sharoitini badiiy buyumlar bezaydi. Bezaydigina emas, balki xalqning estetik tarbiyasiga ta’sir ham ko‘rsatadi⁶².

O‘zbek xalq shevalarining leksik tarkibi juda boy va rang-barang bo‘lib, ularni adabiy tildan va bir-birlaridan o‘zaro farqlaydigan leksik xususiyatlar mavjud. O‘zbek shevalari leksikasidagi bunday leksik-semantik ayirmaliklar insonning moddiy-ma’naviy faoliyati, mehnat jarayoni, tabiat hodisalari kabi rang-barang sohalarga oid so‘zlar bilan bog‘liq tematik guruhlarda o‘z aksini topgan.⁶³

Xorazm gilamchilik leksikasiga oid to‘plangan qo‘l mehnati davri gilamchilik terminlarini leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

⁶² “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” рўзномаси, 1983 й. 20 май сонидagi О. Хўжаниёзованинг “Хоразм гиламлари ранглари” мақоласидан фойдаланилди.

⁶³ Д.Абдурахмонов, Т.Содиқов, Ш.Носиров, М.Туробова. Ўзбек шевалари лексикаси, Тошкент: Фан, 1991, 120-бет.

1.2. To‘qish jarayoni bilan bog‘liq atamalar

1. Xom ashyo nomlarini anglatuvchi terminlar: utoq yip, arqoq yip, erish yiplari, yung; rus tilidan o‘tgan terminlar: lyon, nastilka yipi, korennoy yip (ip), paxta tolasidan ishlanadigan yiplar, nitron, kapron, kanop kabilar.

2. Ish qurollari va uskuna nomlarini anglatuvchi terminlar: do‘kon-gilamchilikda gilam to‘qiydigan stanok; dastgoh – biror ish bajarish uchun yasalgan qurilma; ish o‘rni; daraq (taroq), qaychi, pichoq; do‘kon qismlarining nomlari: o‘rta taxta, ennavuch, maxsus rezvalar- do‘konda ikkita bo‘ladi. Gilamni tortish, taranglash va bo‘shatish uchun ishlatiladi; jakart mashinalar-rus tilidan olingan, gilam to‘qish mashinalari bo‘lib ularning ikki turi mavjud: 1) ko‘p ilgakli jakart mashinalar – yirik gulli to‘qimalar uchun mo‘ljallangan; 2) kam ilgakli jakart mashinalar mayda gulli to‘qimalar uchun mo‘ljallangan.

3. Mahsulot va uning turlarini bildiruvchi nomlar:

Do‘qima g‘a:ly (to‘qima gilam); tikma g‘a:ly (tikma gilam), bosma g‘a:ly (bosma gilam), kalta vorsli gilam, uzun vorsli gilam, vorssiz gilamlar, vorsli gilam, “karki gilam”, “Oxol tekin”, “Tekin”, “Qizil oyoq”, “Pendi”, “Boshimir”, “Chavdar” kabilar.

4. Rang-barang naqshlarning nomlarini bildiruvchi terminlar: bodom guli, qo‘chqor shoxi, po‘choq guli, xumo qushi tasviri, har xil gullar, jingalak naqsh, barg naqshi, navda gul, mari guli (turkman guli), shoyi gul, archa gul, ro‘molcha gul, ot tuyoq kabilar.

5. Gilam to‘qish jarayoni bilan bog‘liq harakat, usul nomlarini bildiruvchi atamalar: i:ri do‘qilish (yirik to‘qilish), murakkab o‘rilish, mayda o‘rillish, oddiy o‘rilish, mayda gulli o‘rilish, yirik gulli o‘rilish, polotno o‘rilish; birinchi do‘qim (birinchi to‘qim) – sirim, ikkinchi do‘qym – qiyim, anjiri va boshqalar.

6. Mahsulot qismlarining nomlarini bildiruvchi terminlar: sochoq, qoqma, qayma, erish, alam, o‘dishma, qiyoy kabi.

Yuqorida ko‘rsatilgan atamalarning ba’zilarini biz boshqa kasb-hunar leksikasida ham ishlatilishini ko‘rdik. Masalan, *do‘kon* terminini biz metallsozlik

leksikasida, degrezlik, rixtagarlik leksikasida, ipakchilik leksikasida uchratishimiz mumkin. Ko‘pincha ularda yon do‘kon, chanoqli do‘kon variantlaridan foydalanilgan. Lekin degrezlar leksikasida eskicha cho‘yan pechini shu nom bilan yuritganlar.⁶⁴

Shuningdek, qaychi, pichoq, daraq (taroq) terminlari ham xuddi shunday boshqa kasb-hunar leksikasida uchraydi. Lekin ular tuzilishi, yasalishi jihatdan ozgina farqlarga ega. Shunga qaramay, ularning bajaradigan funksiyalari bir xildir.

Ba‘zan gilam to‘qish jarayonida ishlatiladigan ayrim terminlar palos to‘qish jarayonida ishlatilmaydi. Masalan, anjiri, qiyim, gula tayoq, vorsli yung kabi terminlar palos to‘qish jarayonida ishlatilmaydi. Terminologiyamizda shunday atamalar uchraydiki, ular ko‘pgina kasb-hunar leksikalari uchun umumiy, bunday terminlarni ilmiy terminologiyada e‘tiborga olish zarur. Chunonchi nashr etilgan lug‘atlarda rus tilidan o‘zlashgan *polufabrikat* atamasi mavjud. O‘zbek tilida bu atamaga muvofiq keladigan ekvivalent topilganча yo‘q. Bir tomlik “Ruscha – o‘zbekcha lug‘at”da (1954 yilda nashr etilgan) bu atamani “nim fabrikat”, “nimkor”, “chala tayyor” deb tarjima qilingan. Bundagi nimkor so‘zi noo‘rin qo‘llangan. Farg‘ona, Toshkent shevalarida “simkor”, Xorazm shevalarida esa “yarim tayyor” tarzida qo‘llaniladi. Bizningcha, “yarim tayyor” atamasi “polufabrikat” so‘zining ma‘nosiga to‘la mos keladi. Metallsozlar esa “polufabrikat”ni “toj nimkala” yoki “angara” deb ishlatadilar. *Angaralash*-narsa (buyum)ni yarim tayyor holiga keltirish, xomlash ma‘nosida.

Xorazm gilamchilik leksikasida uchraydigan ba‘zi ish qurollari yoki gilam turlarining nomlari aholining kundalik so‘zlashuv nutqida uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari sifatida faol qo‘llanadi. Masalan: g‘a:ly, palos, kigiz, shol, daraq, sochoq, qaychi, pichoq kabi.

Demak, ular umumiste‘moldagi so‘zlar hamdir. Ya‘ni bunda kasb-hunarga oid terminlarning umumiste‘moldagi so‘zlarga aylanganligini ko‘ramiz. Ular adabiy tilda va og‘zaki so‘zlashuv nutqida turlicha majoziy ma‘nolarda ham

⁶⁴ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: Фан, I серия, 1956, 17-бет.

qo'llaniladi. Bunga, ayniqsa, maqollar, aforizmlar va turg'un iboralarda ko'plab misollar uchratish mumkin. Masalan: G'a:ly sotsan qonyshyg'a sat, bir yanysnda o'zing o'tyrasan (xalq iborasi). Adabiy tilda : Gilam sotsang , qo'shningga sot, bir yog'ida o'zing o'tirasan. (Maqol).

Ammo terminlarning bir qismi umumiste'moliy so'zga aylanmay, tor professional terminligicha qoladi. Masalan: gula tayoq, arqoq, erish, o'dima kabi.

1.3. Gilam turlari bilan bog'liq atamalar

Har bir kasb –hunar leksikasi har qachon qadim zamonlardan beri qo'llanib kelayotgan so'z – terminlar zahirasisga ega bo'ladi. Kasb – hunarning keyingi taraqqiyoti jaroyonida leksika sostavi o'zgarib boradi: terminlarning ba'zilari eskirib, iste'moldan chiqadi, yangi so'z – terminlar bilan boyiydi. Bir qism eski so'z va terminlarning ma'nolari ishlab chiqarishning yangi taraqqiyoti sharoitida o'zgarib, yangi ma'nolarda ishlatila boshlaydi.

Xorazm shevalarida gilamchilik leksikasini o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, moddiy boyliklar ishlab chiqarish qurollari, asbob –anjomlar, ular o'mashgan joy, mahnat, texnologik jarayon va mahsulot turlarining nomlari dastlabki davrda asosan eskicha davom etib turgan. Gilamchilikda ishlar mashinalashib ketgandan so'ng ham yangi tushuncha va yangi buyumlarni nomlash uchun eski terminlardan foydalanish hollari uchraydi, lekin ko'plari eskirib, iste'moldan chiqib qoladi. Mashinalar, ularning qismlari va ular bilan bog'liq bo'lgan ish jarayonlarini ifodalash uchun yangi terminlar ham qabul qilinadi.

Xorazmda gilamchilikning qo'l mehnati davri leksikasidagi ko'pgina so'z-terminlar (ish qurollari, asbob-uskunalar nomlari va boshqalar) asosan XIX asrdagi terminlarning qariyb o'zidir. Chunonchi: do'kon, ennavuch, gulatayoq, oqlov, erish, arqoq, turkman, guli, sochoq, qoqma, gulacha, udim, qiyim, qinnaqsh, qiyim, siri, anjir qaychi, qo'chqorshoxi, qayoq, taka guli, qirq minus, kapsa gul kabilar. Bu tipdagi ko'pgina so'z-terminlar XIX asrda va undan ilgari ham

gilamchilar leksikasida mavjud edi. Tilimizning taraqqiyoti natijasida bu soʻzlarning koʻpchiligi umumisteʼmoliy soʻzlarga aylangan. Bu oʻrinda shuni aytib oʻtish kerakki, kasb-hunar ahllarining termin tanlash tajribasida birinchi navbatda asosiy lugʻat fondida mavjud soʻzlardan foydalanish odat tusiga kirib qolganligi koʻzga tashlanadi. Bu hol oʻzbek tili asosiy lugʻat fondining mustahkam va yashovchanligini yana bir karra isbotlaydi. Masalan, toʻqish, yigirish, tekislash kabi soʻzlar asosiy lugʻat fondiga oid soʻzlardir. Yung, teri boʻyoq kabi soʻzlarning (mahsulot nomlarining) qadimgi turkiy til yodgorliklarida, lugʻatlarda qayd qilinishi bu terminlarning eramizdan oldingi I asrning ikkinchi yarmi yodgorliklariga taalluqli ekanligini koʻrsatadi⁶⁵. Masalan: kiygizlik yung- kiygiz toʻqishga moʻljallangan yung- sherst, perya.

Boʻyoq- красить

Boʻyoqchi- красильщик

M. Qoshgʻariyning aytishicha, yung soʻzi argʻu- yagʻmo hamda qarluq xalqlarida (paxta, boʻz, mato) maʼnolarida ishlatilgan⁶⁶.

Gilamchilik tarixida eng muhim fakt - bu turkiy xalqlar naqsh sanʼati turlarida koʻp uchraydigan, turkiy tillarga xos boʻlgan oy, qoʻchqor shoxi kabi arxaik motivlarning mavjudligidir. Bundan tashqari, tadqiqotchilar eramizdan oldingi II asr, I asr arxeologik topilmalarida ishlatilgan, qadimgi turkiy tilga xos boʻlgan *bosma, ilma* kabi atamalar hozir ham shu maʼnoda qoʻllanilishini qayd qiladilar.

Gilamchilik leksikasida, yuqorida aytib oʻtganimizdek, qadimdan qoʻllanib kelayotgan soʻz- terminlarining maʼnolarini oʻzgartirish yoʻli bilan ham yangi atamalar yuzaga kelishini koʻramiz. Masalan, oroyish soʻzi tojik tilida bezakzeb maʼnosida (ruscha украшение, наряд, убор- убранство) qoʻllanilgan. Kasb-hunar leksikasida bu soʻz narsaning jakartini buzib turuvchi ortiqcha joylari: chunonchi, gilam toʻqishda qirgʻoqlarida qolgan ortiqcha iplar maʼnosida

⁶⁵ M. Qoshgʻariy. Туркий сўзлар девони, С. Муталлибов таржимаси, ЎзФА нашр., 1960, 465- бет.

⁶⁶ M. Qoshgʻariy, kўrsatilgan asar, III том, 267-бет.

qo'llaniladi. Bular qirqib olib tashlanadi. Bu ish- oroyishini olish deb yuritiladi. Oroyish, oroyishini olish terminlari o'sha ma'noda mashinachi (kiyim tikuvchi)lar, etikdo'zlar, metallsozlar leksikasida ham ishlatiladi.

Termin ma'nolarini o'zgartirish holati boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarda ham uchraydi. Masalan, gilamchilik leksikasida ishlatiladigan qaychini tojik so'zlashuv nutqida *qaychi*, adabiy tilda *miqroz* deb yuritiladi. O'zbek metallsozlari esa faqat sham so'xtasini kesadigan asbobnigina *miqroz* deydilar

Qo'y junini qirqadigan qaychi tojiklarda *dukorda* deyiladi⁶⁷. O'zbek metallsozlari bu terminni dukart shaklida, ammo qaychining mayday turi ma'nosida ishlatadilar.

1.4. Atamalardagi leksik xususiyatlar

Kasb-hunarning rivojlanishi natijasida bir turli vazifani bajaruvchi buyumning bir necha xili yuzaga keladi. Bu turlar ba'zan o'zaro shakli va ishlangan materiali jihatdan farq qiladi. Buning oqibatida kasb-hunar leksikasida differensiyalanish, ya'ni bo'linish – ajralish yuz beradi. Masalan, gilamchilik leksikasida maxsus gilamchilar pichog'i mavjud. Tig'li (narsa kesadigan) asboblarning formalariga va bajargan vazifalariga ko'ra, nimadan yasalishlariga ko'ra alohida-alohida nomlanadi. Chunonchi, tig'ning turli buyumlarni qirqadigani – pichoq, soch, soqol qirqadigani -ustara, bog'da daraxt shoxlarini butash uchun qo'llaniladigani - kachkart deb ataladi. Pichoqning etikdo'zlikda ishlatiladigan turning o'zi ham bir necha xillarga bo'linib, alohida-alohida nomlanadi: *gazdan*, *rantpichoq* kabi.

Termin ma'nolarining kengayishi.

Kasb-hunar leksikasining tarmoqlaridagi ayrim so'z-terminlar o'zlarining anglatgan ma'nolariga ko'ra ma'lum polisemik so'zlarni tashkil qiladi. Chunonchi, ish so'zi umumxalq o'zbek tilida mehnat, yumush, xizmat ma'nolarida ishlatilsa, gilamchilik leksikasida ish so'zi 1) gilam to'qishda ishlatiladigan xom ashyo (jun, arqoq) ma'nosida hamda tayyor mahsulot ma'nosida ishlatiladi. Masalan:

⁶⁷ Таджикиско-русский словарь, 1954, 139-бет

bir gilamlilik ish - bir gilamlilik yung ma'nosida; Mening to'qigan ishimni ko'ring – "to'qigan gilamimni ko'ring" ma'nosida; 2) hali to'qilmagan tanda (ruscha: очоба) ma'nosida ishlatiladi. Masalan: Ustam ishni ko'chaya (ko'chaga) yozib noxlarini qirqayotir. Man bo'lsam, do'konda yana toza ishni boshladim. Ya'ni to'quv stanogiga ipak tandani o'rnatdim, degan ma'noda.

Metallsozlar ham ish so'zini aynan shu ma'noda qo'llayqilar. Masalan, dastaki ish- qo'lda yasalgan buyum, quyma ish – quyub yasalgan buyum;

Oqlov termini gilamchilik leksikasida do'konga o'rnatiladigan (bo'yi 2,25 m) erish (ip) lar birma bir teriladigan uzun taxta tushinilsa, duradgorlar leksikasida uy anjomi - xamir yoyishda ishlatiladigan oshxona asbobi tushiniladi.

Anjir – termini gilamchilikda 7 qiyim bo'lib to'qiladigan (5-6sm keladi) to'qish jarayoni sifatida qo'llanilsa, metallsozlar leksikasida esa, xususan zargarlikda – qashqarbaldoq (quloqqa osiladigan zargarlik buyumi) tanasining yuzini bezash uchun ishlatiladigan ingichka tillani tushuniladi⁶⁸.

Sinonimiya. To'plangan gilamchilik terminlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, kasb - hunar leksikasida sinonimiya morfologik va sintaktik usul bilan yuzaga keladi. Bu hodisa umumxalq tiliga xosdir.

Masalan: 1. Morfologik usul bilan tuzilgan sinonimlar:

a) – *chi*, - *gar*, - *soz*, - *dor*, - *li* suffikslari yordamida hosil bolgan yasama sinonimlar: gulli, guldon, naqshli; damgar – damchi; tunukasoz - tunukachi kabi.

b) *be-*, - *siz* affikslari yordamida hosil bo'lgan sinonimlar: begul - gulsiz; benaqsh – naqshsiz kabi.

2. Sintaktik usul bilan yuzaga kelgan sinonimlarning komponentlari quyidagi tartibda birikadi:

a) birinchi komponent tub va yasama otlardan, ikkinchi komponenti yasama otdan: gilam to'quvchi – gilamchi, dam bosuvchi – damgar;

⁶⁸ С. Иброҳимов. Металлсозлик касб – ҳунар лексикаси, 1959 йил, 221 -бет

- b) har ikki komponent ham tub otning birikuvidan iborat bo‘ladi: mari guli - turkman guli; gulqalam – bigizqalam – po‘latqalam;
- s) ot va harakat nomining birikuvidan tashkil topgan bo‘adi: bog‘lab chiqish – taxlab chiqish – o‘rab chiqish; jilo berish - sayqal berish;
- d) o‘zbekcha va tojikcha so‘zlardan iborat bo‘ladi: naqsh – gul, o‘chak – andoza, ulash – kavsharlash;
- e) komponentlaridan biri rus tilidan kirgan so‘z, ikkinchisi o‘zbekcha, tojikcha yoki arabcha so‘zdan iborat bo‘ladi: tukli gilam – vorsli gilam – vorssiz gilam, usta – мастер kabi.

II bob. Gilamchilik atamalarining grammatik xususiyatlari

Xorazm gilamchilik leksikasi materiallarini grammatik tuzilishi jihatdan tekshirish natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, ularda umumxalq tiliga xos morfologik xususiyatlar ko‘p uchraydi.

2.1. Atamalarning tarkibiga ko‘ra turlari

Morfologik tuzilishi jihatdan Xorazm gilamchilik terminlarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Bir o‘zakdan iborat tub terminlar.
2. Sodda yasama terminlar.
3. Qo‘shma terminlar.
4. Murakkab terminlar.

Morfologik so‘z (termin) yasash shunday usulki, unda o‘zak - negizga so‘z yasovchi qo‘shimchlar qo‘shiladi. Bunday so‘z (termin) yasash ko‘pgina tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham eng mahsuldor usuldir⁶⁹.

Sintaktik usul bilan qo‘shma va murakkab terminlar hosil qilinadi.

Tub terminlar. Gilamchilik leksikasidagi tub terminlarga quyidagilarni kiritish mumkin: andoza (ulgi), alam (gilamning boshida, ya’ni sochoqdan, qoqmadan keyin gilamga tushiriladigan naqsh), asbob (ish quroli), bors (ipning turi), g‘oli (gilam), gul (gilamga tushiriladigan naqsh bo‘lagi), dovos (to‘quvchining ishxonasida ikki ustunning tepa oralig‘iga o‘rnatilgan va ustundan uchiga tosh bog‘langan tanda oshirib qo‘shiladigan yog‘och g‘ltak), jilo (gilamning yuzidagi tiniqligi), oy (oy shaklida to‘qiladigan naqsh), jun, kanop, len, nax (xom ashyo turlari), naqsh (badiiy bezak), oy (oy shaklida to‘qiladigan naqsh), oro (bezak , hasham), palos (to‘qima buyum), uch (gilamning uchlari), xomuza (erishlarning yuqori va pastga tushishi natijasida hosil bo‘ladigan bo‘shliq), en (gilamning kengligi), o‘ng (gilamning to‘quvchiga qarab turgan tomoni), yulduz (badiiy naqsh elementi), eyav (egov), taxta, jiyak, qora, ko‘k, taka,

⁶⁹ R.Doniyorov. O‘zbek tili taxnik terminologiyasining ayrim masalalri, “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1677, 90- b.

kopsa, qirq kabilar.

Umumiste'moldagi (yoki asosiy lug'at fondiga aloqador) so'z va terminlardan ayrimlari gilamchilik leksikasida alohida ma'nolarda ishlatiladi. Shu kasbning terminiga aylangan umumiste'moldagi so'zlarga gul, yip (ip), jun, jiyak, qora, ko'k kabilarni ko'rsatish mumkin.

Sodda yasama terminlar.

Gilamchilik leksikasidagi sodda yasama terminlarini o'zak –negizga qo'shiladigan affikslarning xarakter xususiyatiga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

- 1) prefiks (old qoshimcha)li terminlar;
- 2) suffiksli terminlar.

Prefiksli terminlardan gilamchilik leksikasida tojik tilidan o'zlashgan be- prefiksi orqali yasalgan terminlar mavjud. Bu prefiks forscha - tojikcha so'zlardan tashqari o'zbekcha, ruscha va arabcha so'zlarga qoshilib ham so'z – termin yasaydi. Masalan: begul (gulsiz, naqshsiz ma'nosida, begul g'oli; benaqsh palos kabi).

Suffiksli terminlar quyidagi qo'shimchalar yordamida yasaladi:

-v, -uv suffikslari fe'l o'zagiga qo'shib, ot (harakat nomi) yasaydi: to'quv, qiyuv (protsess nomi), o'qlov. Bu suffikslar bilan yasalgan protsess otlari boshqa xil nomlar (shu o'zaklardan anglashilgan harakatni bajaruvchi shaxs nomlari)ni yasashga asos bo'ladi: to'quvchi, kesuvchi, yigiruvchi kabi;

-aq, -oq, -og' suffikslari ot, fe'l o'zaklari va undovlarga qo'shib, mahsulot, qurol nomlarini yasaydi. Masalan:

pich- oq –pichoq (kesmoq uchun ishlatiladigan ish quroli);

tara- q -taroq (ish quroli);

bo'l- ak- bo'lak (badiiy naq elementlaridan biri);

-i suffiksi otga qo'shib, narsa oti yasaydi: anjir-I - anjiri (to'qish jarayoni - bosqichi); bargi- gilamga solinadigan badiiy naqsh kompazitsiyasining bir turi; oqlovi- do'kon qismaridan biri;

-m, -im, -um affikslari fe'lga qo'shib ot yasaydi: qiyim (protsess), qirqim,

sirim (to‘quv jarayoni);

-siz suffiksi o‘zakka qo‘shilib, shu o‘zakda anglashilgan narsa yoki belgiga ega emasligini bildiradi, be- prefiksining ma’nosiga tengdir. Masalan: naqshsiz (gulsiz) g‘oli, vorssiz g‘oli, gulsiz palos kabi;

-ma suffiksi fe’l negizlariga qo‘shilib, buyum, uning qismi va turi nomlarini anglatuvchi ot hamda sifat yasaydi. Masalan: bosma (gilamning gullar bosilib to‘qiladigan turi), osma (devorga osiladigan gilam), o‘dima (gilamning ikkala yon tomoni), qayma (gilamning chetki qismi), qoqma (sochoqdan keyin to‘qiladigan to‘quv jarayoni), o‘rama, tikma, qurilma kabilar.

-chi suffiksi ot va fe’lga qo‘shilib, ish-protsess, kasb-hunar egalari nomini yasovchi, ishlab chiqarish ahllarini nutqida juda ko‘p qo‘llanuvchi suffiksidir. Tojikcha -gar va -soz suffikslari bilan ma’nodosh. Masalan: to‘quvchi, gilamchi, yigiruvchi, ip o‘ruvchi, tandachi, tandalovchi, pishituvchi, pardozlovchi kabilar.

Qo‘shma terminlar.

O‘zbek tilining texnik terminologiyasida yakka so‘zli (sodda) terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ancha salmoqli o‘rinni egalaydi. Buning sababi shundaki, sintaktik usul bilan yasalgan terminlar barcha tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham muhim nominativ manba sanaladi, ularda ifodalanayotgan narsaning belgisi shundoqqina anglashilib turadi.⁷⁰

Gilamchilik leksikasida ham sintaktik usul bilan hosil bo‘lgan terminlar anchagina. Qo‘shma terminlarni semantik jihatdan uch turga: 1) ish-harakat, jarayon bildiruvchi; 2) buyum (qurol, mahsulot, ularning qismlari va turlarini biladiruvchi; 3) sifat, holat bilduruvchi terminlarga ajratish mumkin.

1. Ish, protsess nomini bildiruvchi terminlar tarkibida qancha so‘z qatnashishidan qat’iy nazar, oxirgi fe’l (o‘zak yoki negiz) qismiga – ish suffuksi qo‘shilib keladi. Bu tip terminlarining birinchi qismi ot, ikkinchi qismi esa harakat nomidan bo‘ladi. Masalan: gul tashlash, erish bog‘lash, gulatayoqqa

⁷⁰ Р. Дониёров. Ўзбек тилининг техник терминологиясининг айрим масалалари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1977, 90-бет

solish, sochoq solish, sorja o‘rish, gul solish, yip qirqish, yip darash (tarash), pardozi barish (berish), o‘dima solish, gulacha tashlash va hokazo.

Qo‘shma terminlarning ko‘p qismi ikki tub so‘znng birikishidan tashkil topgan, umumiste’molda ham ko‘p qo‘llaniladigan terminlardir. Chunonchi: atirgul, bodomgul, gul qaychi, gilam naqsh, golvand (gul bamd), katta usta, lola naqsh, lolagul, panja gul, kaja gul, mari gul, taka gul, xorazm gul, qashqar gul, yoyiq gul, yo‘g‘ich gul, mo‘tti gul, o‘rta taxta, gula tayoq, temir qaychi kabilar.

Ikki so‘zdan yasalgan va birinchi qismi suffiks yoki prefiks bilan yasalgan qo‘shma terminlar: begul g‘oli, begul palos, birinchi to‘qim, ikkinchi to‘qim, birinchi gulacha, ikkinchi gulacha, vorsli g‘oli, vorssiz g‘oli, osma g‘oli, buyurtma g‘oli, tikma g‘oli, to‘qima g‘oli, ro‘molcha gul, oxol tekin, orqa bog‘, navda gul, mokisiz stanok, kamgul, jakart mashina, jingalak naqsh, bo‘lak gul, bodomcha gul, anjirbargi, arqoq ip, archa gul kabilar.

Qo‘shma terminlarning morfologik tarkibi jihatdan qarab chiqadigan bo‘lsak, ular quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1. Ikki otdan tashkil topgan terminlar:
 - a) ikki tub otdan: gulatayoq, xorazm do‘kon, bodom gul.
 - b) tub ot – yasama otdan : gul to‘quvchi, bo‘lak gul, yoyiq gul;
 - c) ot – harakat nomidan: do‘kon bog‘lash, tanda tortish, gul tashlash, yip qirqish, erish bog‘lash;
 - d) ikki yasama otdan: qashqari gul, mari guli;
2. Yasama sifat – tub otdan: tortma ip, bosma g‘oli;
3. Son – ot: birinchi to‘qim, ikkinchi qiyim kabi.

Murakkab terminlar.

Sintaktik usul bilan yasalgan terminlar ichida ikkidan ortiq so‘z o‘zak-negizlaridan tashkil topgan atamalar ham uchraydi. Bularga mayda gulli o‘rilish, past vorsli gilam, humo qushi tasviri, qirq minus gul, yettinchi qiyim to‘qish, yigirma ikkinchi qiyim to‘qish kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Murakkab terminlar qo‘shma terminlarga nisbatan ozroq.

2.2. Ayrim atamalarning tarixiy –etimologik xususiyatiga

ko‘ra tavsifi

Gilamchilik leksikasi tilimiz leksik tarkibining qadimiy qatlamlaridan bo‘lib, til taraqqiyotining barcha etaplarini o‘z boshidan kechirgan. U umumxalq tilining maxsus tarmog‘i sifatida davr taqozosi bilan turli o‘zgarishlarga uchragan. Ayrim so‘z- terminlar eskirib, o‘rniga umumxalq leksikasi negizida yangilari paydo bo‘lgan. Ba’zi professional terminlar o‘z doirasidan chiqib, umumxalq tili leksikasida qo‘llana boshlagan. Hatto bu tipdagi terminlar ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, xalq maqollari, frazeologik iboralari tarkibiga singib ketgan. Shuningdek, so‘z terminlarining qo‘llanish tarixiga nazar tashlasak, boshqa tillar, ya’ni qarindosh va qo‘shni tillar bilan munosabatda bo‘lgani, ham ichki, ham tashqi faktorlar ta’siri natijasida ularning semantik strukturalarida turli o‘zgarishlar yuz bergani, xullas, so‘z- terminlarining o‘zlariga xos leksik – semantik xususiyatlarga ega ekanligi seziladi. Faktlarga murojaat etamiz: o‘zbek adabiy tilida va ayrim shevalarda “patli gilam” (rus. «ворсовый ковер») ma’nosida *gilam* termini qo‘llanadi. Gilam termini o‘zbek adabiy tilida leksik norma sifatida qabul qilingan:

Gilam aslida fors – tojik کليم – “palos” so‘zidan bo‘lib, hozirgi tojik adabiy tilida *gilem* “ковер без ворса” ma’nosida qo‘llanadi va o‘zbek adabiy tilidagi ma’nosining aksini bildiradi. Tojik tilining izohli lug‘atida gilam termini *gilem* – jun chakman, palosning bir turi (Farhangi, 698)⁷¹. “O‘zbek klassik adabiyotiqisqacha lug‘atida” *gilem* کليم 1) gilam, 2)jun chakman (Shamsiyev, Ibrohimov, 71) deb izoh qilingan. Prof. A. K. Borovkovning O‘rta Osiyo tafsiri leksikasiga bag‘ishlangan asarida gilam – tojikcha *gilem* “palos”, “kover bez vorsa” (Borovkov, Tafsir, 170) tarzida qayd etiladi.

Gilam termini ma’nosidagi xilma-xillik o‘zbek tilining ikki tilli shevalari, shuningdek, qipchoq gruppasi shevalarida ham ko‘zga tashlanadi. So‘z ma’nosi va

⁷¹ Hajmni ixchamlashtirish maqsadida ishning qolgan qismida foydalanilgan olmiy asarlar va lug‘atlarning tez-tez takrorlanganlari shartli qisqartmalar asosida beriladi.

soʻz qoʻllashdagi xilma – xillikning sabablaridan biri hozirgi kunda qoʻl bilan toʻqiladigan - patli gilam “ковер без ворса” Oʻzbekistonning Xorazm, Samarqand, Buxoro viloyatlarining sanoqli joylaridagina ushlab chiqariladi. Xiva, Gʻallaobod, Nurota, Ishtihon, Shofirkon kabi Oʻzbekistonning boshqa koʻpgina shahar va tumanlarida patsiz, taqir gilam – *arabi* toʻqiladi. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida gilam deganda *patsiz, taqir gilam* tushuniladi. Masalan, gilam soʻzining Buxoro va Gʻijduvonda gilem, Kitobda gʻlam, Shahrisabzda *k ʁ lʁ m / gʁ lʁ m, giləm*, Kosonda *gilem* singari fonetik variantlari mavjud boʻlib, bular *taqir gilam* maʼnosini bildiradi.

Shuni qayd etish kerakki, sanab oʻtilgan shevalarda gilam termini oʻzining haqiqiy maʼnosi asli fors – tojik tilidagi maʼnosini saqlagan. Ammo Samarqandning Gʻallaorol va Qashqadaryoning Alachabob, Mulali, Andabozor, Oʻyrot, Qorakevanak kabi qishloqlari toʻquvchilari patli gilamni taqir gilamdan ajratish uchun *pat dilam* terminini ham ishlatadilar. Pat gilam “patli gilam” maʼnosida Urgut, Gʻuzor, Shahrisabz toʻquvchilari leksikasida ham mavjud.

Soʻzning semantik strukturasi va formasiga oid bunday xilma – xilliklar, qadimiy lugʻatlar va yozma yodgorliklarda ham koʻzga tashlanadi. Jumladan, XI asrning mashhur yodgorligi Mahmud Qoshgʻariyning “Devoni” da gilam, palos soʻzlari maʼnolarida butunlay boshqacha soʻzlar *yazim, kyvyz, kubsun* kabi beriladi: *jazim* – gilam – kover (MK, I, 54-20), *kiziz* – kigiz, namat, *kiwiz* – uyga, yerga solinadigan keng va enli palos (MK, I, 347-3, Ind, 106), *kyvyz* كوز yungdan toʻqilgan, yerga solinadigan har qanday *palos, gilam, sholcha, namat* (MK, III, 178 – 19); *kubsun* – toʻshak, gilam – postel, kover (MK, I, 410-19); prof. S. Ye. Malov kitobida *jadyim, barcyn jadyim – kovri* (Malov, 368). “Badoi-al lugʻat”da gilamcha maʼnosida *zilucha* soʻzi keltiriladi. “Ziuca” kovrik, kover deb izohlanadi va “Abushqa” da bu soʻzning berilishiga chogʻishtiriladi: ذيل ”kovrik”, “kover”; ذيل “kover”, “palas” (kover s vorsom na odnoy storone) (Borovkov, B. L, 183).

Tojik tilining izohli lugʻatida shol soʻzi ham “kichik gilamcha”, yaʼni “gilemi xurdi pashmin” deb tarjima etilgan.

Gilam turkiy tillarda turli fonetik variantlarda, chunonchi, qirg‘iz tilida kilim “маленький палас”, “kovrik” (Borovkov, Tefsir, 171); turkman tilida kilim – “небольшой безворсовый постилочный ковер” (Murodova. 248), qozoq tilida kilem // tukti kilem formalarida qo‘llanib, goh “patli gilam”, goh “patsiz gilam” ma’nosini beradi.

Qashqadaryoning j lovchi shevalarida, jumladan, Chiroqchi tumanida ham “patli gilam” ma’nosida qozoq tilidagi singari tukli gilam birikmasi qo‘llanadi.

Yuqorida qayd etilgan lingvistik faktlar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, gilam aslida fors –tojik tiliga xos so‘z bo‘lib, tojik tili, shuningdek, qadimgi o‘zbek tilida *jundan to‘qilgan buyum, chakmon* yoxud *palos – patsiz gilam* ma’nosini anglatgan; uning mana shu ma’nosini ayrim o‘zbek shevalarida, shuningdek, hozirgi tojik adabiy tilida saqlanib qolgan. Ammo davrlar o‘tishi bilan qandaydir, bizga noma’lum bo‘lgan sabablar, to‘g‘rirog‘i, til taraqqiyotining o‘ziga xos obyektiv qonuniyatlari asosida o‘zbek adabiy tilida gilam termini “patli gilam” – “ворсовый ковер” ma’nosiga ega bo‘lgan va shu ma’nosi bilan tilimiz leksik sostaviga singib ketgan.

So‘z tarkibining leksik qatlamlarini tahlil etish, so‘z terminlarining semantik xususiyatlarini kuzatish har bir tilda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishning o‘ziga xos ajoyib qonuniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Qizig‘i shundaki, ayrim o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tilida “patli gilam” ma’nosida tojik so‘zi *gilam* o‘zlashgani, singib ketgani holda hozirgi tojik tilida “patli gilam” ma’nosida qadim turkiy qali// g‘ali so‘zining qolin// qoli, qolicha kabi fonetik variantlari ishlatiladi.

Tojik tilining izohli lug‘atida *qolin // qoli* – turkiy, gilemi pashmini patnok, *qolibof* – gilembof, *qolicha* – “qolini xurd” (Farhangi, 698). “Forscha – ruscha lug‘at” da ham bu so‘z g‘ali shaklida “kover” ma’nosida berilgan.

O‘zbek tilining Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlariga qarashli bir qator shevalarda xuddi hozirgi tojik adabiy tilidagi kabi

“patli gilam” ma’nosida qadim turkiy *qali*//*g’ali* soʻzining *qolin*, *qoln*, *xol*, *g’al*, *g’al*, *g’ol* kabi fonetik variantlari, shuningdek, oʻzbek adabiy tili nuqtai nazaridan qaraganda, *qolin* gilam tipidagi tovtologik koʻrinishi amalda qoʻllanadi. Ta’kidlash lozimki, ikki til shevalarida ham, tojik tili ta’siri boʻlsa kerak, patli gilam ma’nosida qadim turkiy soʻz *qoli*//*qolin*, *qolincha* soʻzlari ishlatiladi. Bu fakt hatto ikki tilli shevalarimiz vakillari hayotidan olib yozilgan badiiy asarlarda ham koʻzga tashlanadi. *Qora uylardan uzoqroqda uch-toʻrt murabbaʼ metr yer tekislangan va u yerga qoziqlar qoqilib qolin va qolincha oʻrishi tortilgan.* (S. Ayniy. Tanlangan asarlar, 3-tom)

Shunga oʻxshash Qashqadaryoning Kitob, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarida, hozirgi Kitob posyolkasining Bashir qishlogʻida *qoln* Kitobning boshqa bir qishlogʻi Beshtarakda xalʼy (Joʻrayev, 153); Chiroqchida *xolʼ*, *xolʼ gʼlam*, Qarshida *qoln*, *qoln gʼlam*, Urgutda *qolʼm gʼlem*, Ishtixonda *xolʼ*, *xolʼ gʼlam*; Nurota turkmanlari va oʻzbeklari “tili” da xalʼy (Kovri, 247). Xiva, Xonqa, shuningdek, Xorazm viloyatiga qarashli boshqa tumanlarda *g’alʼ*//*g’olʼ* formalari uchraydi: “G’alʼ sassing, qonshynga sat, bʼr qyrasʼnda uzʼng oʻtʼrasan” (Abdullayev, XSh, 33)

Etimologik jihatdan qadim turkiy sanalgan *g’ali* // *qali* soʻzi “Devonu lugʻatit turk”, “Qadim turkiy lugʻat” va “Badai al lugʻat” da berilmagan. Bu lugʻatlarda, umuman, *palos*, *gilam* maʼnolarida boshqa soʻzlar uchraydi. Lekin V.V.Radlov lugʻatida *qali* // *g’ali* soʻzi *qali* shaklida berilib, boshqacharoq izohlanadi: “qali –turkiy, yungdan toʻqilgan gilam” (Radlov, II, 239).

Xorazm shevalarida *g’a:lʼ*, *g’alʼ* shakllarida keng uchraydigan *g’ali* soʻzi XIV asr Xorazm yozma yodgorliklaridan Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Qutbning “Xusrav va Shirin”, Xorazm xattoti Muhammad Xorazmiy tomonidan koʻchirilgan XIV asr yodgorligi “Naxjul farodis”, XIV asrda xorazmlik Sayfi Saroyi tarjima qilgan Saʼdiy asari “Guliston bi-t turki” kabilarda *qali* va *g’ali* formalarida uchraydi; *qali* (NF, XIII)- kover. *Ol yev ichinda rumi qalilar toshaklik turur.* “v tom dome rassteleni vizantiyskie kovri” (NF, 1186, 13).

G'oli termini ozarbayjon, turkman, qoraqalpoq, turk singari turkiy tillarda faqat tashqi tomoni – soʻzning qobigʻidagi farqlar bilangina bir –biridan ajraladi. Masalan, turk va ozarbayjon tillarida *xali*, qoraqaloq tilida *gʻali*, turkman tilida *gali* // *xa:li* gilam (TDS, 699); *xali* (Muradova, 246).

Yuqoridagilarning xulosasi sifatida shuni aytish mumkinki, oʻgʻiz lahjasi uchun xarakterli boʻlgan qadim turkiy *gʻali* // *qali* soʻzi tojik adabiy tilida, oʻzbek tilining ikki tilli shevalarida, Xorazm shevalarida, shuningdek, turk, ozarbayjon, qoraqalpoq, turkman kabi qator turkiy tillarning leksik sostavida “patli gilam” – “vorsoviy kover” maʼnosida saqlanib qolgan.

Gilamchilikda ishlab chiqariladigan predmetlar orasida nomi tez-tez tilga olinadigan buyumlardan yana biri palosdir. “Oʻzbekcha –ruscha lugʻat”da palos soʻzining ikki xil maʼnosi koʻrsatiladi. 1) palos (ковер без ворса), кошма; 2) всё, что стелится на пол и выполняет назначение паласа. Yaʼni, palosning birinchi maʼnosi “patsiz gilam va kiyiz”; ikkinchi maʼnosi polga toʻshaladigan va polga toʻshash vazifasini bajaradigan har qanday buyum.

“Navoiy asarlari lugʻati”da *palos* soʻzining ikki maʼnosi berilgan: “Palos” بلاس forscha soʻz; birinchi maʼnosi - jundan toʻqilgan joʻnroq kiyim, arzon kiyim; ikkinchi maʼnosi - kigiz, namat, sholcha; *Palosi ibdor* – baxtsizlik toʻni, kambagʻal toʻni tarzida izohlanib “Navodir ush shabob” dan misol keltiriladi:

Chun yopsa naʼshim uza palosi idborim,

Belin tongʻorgʻa palos uzra yaxshi zunnorim.

(P. Sh. S. I., 499).

“Oʻzbek klassik adabiyoti qisqacha lugʻati” da ham palos yuqoridagi lugʻatga oʻxshash izohlangan: “Palos بلاس jundan toʻqilgan past kiyim, arzon kiyim; kigiz, namat, sholcha (Shamsiyev, Ibrohimov, 260). “Tojik tilining izohli lugʻati”da palos 1) farsh, gilem, namadi durushti az pashm boftashuda” (Farhangi, 21). XIV asr Xorazm yozma yodgorliklariga bagʻishlangan asarda palos soʻzi quyidagicha izohlanadi: Palos (≈pəlas) (NF بلاس) t. pers. Palas, grubosherstnaya tkan, *taqi ozi palas ton kəyər erdi* “on nasil grubosherstniy xalat (NF, 104 a, 13);

Suleyman payg'ambar ozi palas ton kayar erdi" "prorok Suleyman sam nosil grubosherstnoye odeyaniye" (NF, 106a, 14) (Fazilov, II, 204).

Palos so'zining qadimgi lug'atlar yozma yodgorliklardagi "jundan to'qilgan to'nlik material" yoki "past kiyim", "arzon kiyim" ma'nolari hozirgi o'zbek shevalarida va hozirgi o'zbek adabiy tilida yo'qolib ketgan. Uning ayrim shevalardagi hozirgi ma'nosi quyidagicha izohlanadi: Xivada, shimoliy Xorazm shevalarida palas, Urganch, Xonqa, Xazorasp shevalarida *polas* shaklida ishlatilib, "sholcha" "nebolshoy domotkaniy palas" ma'nosini beradi (O'Z XShL, 207, Abdullayev, XSh, 76).

"O'zbek xalq shevalari lug'ati" va "Xorazm shevalari" asarlarida *palos* faqat *sholcha* deb izohlanadi. Ammo Xiva gilam to'quvchilari jun va paxta tolasidan to'qiladigan *gullik*, *taqir gilam*, ya'ni *arabini* ham "palos" deb nomlaydilar. Demak, Xorazmda palos tushunchasi o'zbek tilidagi palos ma'nosidan torroq tushunchani anglatadi. Shuning uchun ham tor tushuncha anglatadi deymizki, adabiy tilda palos umuman, polga – yerga to'shash uchun foydalaniladigan buyumlar (kiyiz, sholcha, gilam kabi) tushunchalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga yuqoridagi lug'atlarda berilgani kabi Xorazm shevalarida palos tushunchasi sholcha tushunchasi bilangina cheklanmaydi.

Shevalarda palosning to'qilish texnikasiga ko'ra nomlanadigan *terma gilam*, *qoqma gilam*, *g'ojari gilam*, *besh kashta* singari turlari mavjud. *Terma gilam*- naqshi o'rish iplarini sanab, terib turib arqoq o'tkazish orqali tushiriladigan sholcha. Bunday sholcha jun va paxta tolasini aralashtirilib to'qiladi. *Qoqma gilam*- naqshi juda sodda, o'rish iplari sanalmay, arqoq o'tkazila beradigan, qilich bilan qoqib- qoqib to'qiladigan yo'l –yo'l sholcha. *G'ojari* – sholchaning yo'llariga mayda naqshlar solinib to'qiladigan bir turi. *G'ojari* nomi *qoqma*, *terma* kabi to'qish texnikasiga ko'ra paydo bo'lgan nomga u qadar o'xshamaydi. Chunki uning ma'nosi *qoqma*, *terma* so'zlarining ma'nosi kabi anglashilmaydi. *G'ojari*ning ma'nosi balki Quyi Qashqadaryoning Ulyanov tumanida yashovchi "kojar" urug'i nomi bilan aloqadordir. *Besh kashta* – yo'lga jun tolasidan naqsh

tikilib, to‘qiladigan sholcha. Palosning g‘ojari va besh kashta turlari turkmanlarda ham to‘qiladi. Turkman tilida *kajari* va *besh keshde* deb yuritiladi.

O‘zbek adabiy tilida palos tushunchasi o‘z ichiga oladigan buyumlardan biri sholchadir. Sholcha – ip va jun tolasidan o‘rmakda to‘qiladigan oddiy palos sholcha <forscha shol شال “sherst” so‘zi bilan aloqador bo‘lib, qadimgi vaqtlarda “yungdan to‘qilgan kiyim” ikkinchidan, “ro‘mol, o‘rama” ma’nolarida qo‘llangan. “O‘zbek klassik adabiyoti lug‘ati” da sholcha so‘zining xuddi shu ma’nolari ko‘rsatilgan (Shamsiyev, Ibrohimov, 401; P.Sh., S.I., 701). “Attuhfa” lug‘atida shol شال (po‘stak) (29 a – 7-24) deb izohlangan. “O‘zbekcha – ruscha lug‘at”da bo‘lsa, sholcha – “nebolshoy domotkanniy palas” deyilgan. Shevalarda sholchaning turli fonetik, leksik variantlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos semantik xususiyatlarga ham ega. Chunonchi, Surxondaryoda jun yoki paxta tolasidan o‘rmakda to‘qiladigan dag‘al mato- shol deyiladi. Surxondaryoning Angor tumanida o‘rmakda to‘qiladigan ip sholcha- shol//sholi, hatto gilem deb ham yuritiladi. Sholchani qora uy (o‘tov)ning o‘rtasidan boshlab o‘choq atrofiga to‘shaladigan gulsiz kichik gilamcha deb izohlaydilar. Jarqo‘rg‘on tumanida o‘rmakda to‘qiladigan yo‘l-yo‘l sholchani toqir gilam deb nomlashadi. Xuddi shu buyum Samarqandning Bulung‘ur tumanida palos, Zomin, G‘allaorol va Ishtihonda sholcha yoxud olacha, Qashqardaryoning G‘uzorida *sholcha gilam*, yoxud *olə gʻlam*, Shahrisabzda *sholchə gʻlām*, Chiroqchida *sholchə* deb yuritiladi.

Qiziq fakt, Xorazm shevalarida olacha so‘zi jun yoki paxta solib tikilgan to‘shakni anglatadi. Toshkent atroflarida esa, *oləchə* - oddiy yo‘l –yo‘l sholcha va beqasamga o‘xshash naqsh tushirilib to‘qiladigan dag‘al matodir.

Olacha turkiy tillardan qozoq tilida alasha – jaydari mato; uyg‘ur tilida *alichə* - palos, sholcha; qirg‘iz tilida alacha – matoning bir turi; turkman tilida alacha – jaydari mato; o‘zbek adabiy tilida olacha – jaydari mato bo‘z ma’nolarida qo‘llanadi.

Turkman gilamchilgida o‘zbeklarning sholchasiga o‘xshash buyum, yani

palos turlari ishlab chiqariladi. Lekin u “kilim” deb nomlanadi. Turkmanlarda palos bilan kilim faqatgina razmerida, qisman naqsh turlarida farq qiladi. To‘qish texnikasi va ishlatiladigan xom maxsuloti, mutlaqo bir xil. Kilim razmeri nisbatan kichik bo‘lganidan beshikka yopish uchun ham to‘qiladi. Beshik yopig‘i *sallanchak* kilim deb nomlanadi. “Sallanchak kilim”ning bo‘yi 1,5m, eni 70-80 sm gacha bo‘lishi mumkin. (Murodova, 248).

Palosning bunday turlari Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyati tumanlarida, Farg‘ona vodiysining qipchoq va qirg‘iz urug‘larida, Toshkent viloyatining qurama urug‘lari istiqomat qiladigan territoriyalarning barchasida qadimdan boshlab ishlab chiqarilgan.

Palos turkman gilamchiligida ham ishlab chiqariladi. Turkman tilida bu termin quyidagicha izoh qilinadi: “... Palos- bezvorsoviy postelochniy kover bolshogo razmera”. (Murodova, 247-248). Palos to‘qish texnikasi turkmanlarda ham o‘zbeklarda ham haqiqiy gilam – patli gilamdan farq qiladi. Palos patsiz bo‘lgani uchun gullari arqoqning o‘zidan chiqariladi va patli gilamga qaraganda o‘rish iplari siyrakroq bo‘ladi.

Turkmanlarda palosning to‘qish texnikasi va naqsh turlariga ko‘ra nomlarining bir necha turi mavjud: *buynuzi* (bukv. rogoobraznaya, rogovaya), *gulyaydi palas* (bukv. svetok raskrilsya) (Muradova, 247-248) va boshqalar. Aftidan, palos so‘zining o‘zbek adabiy tilidagi ma’nosi ham, o‘zbek shevalaridagi ma’nosi ham turkman tilidagi ma’nosiga u qadar mos kelmaydi. Chunki o‘zbek adabiy tilida palos tushunchasi sholchaning hamma turlari, kigiz, gilam, umuman, polga to‘shash uchun xizmat qiladigan buyumlarni o‘z ichiga oladi. Palosning turkman tilidagi ma’nosiga o‘zbek tili va o‘zbek shevalaridagi *arabi*, *arabi gilam* so‘zlarining ma’nosi ko‘proq yaqinlashib keladi.

Arabi - jun va paxta tolasi aralashtirilib, gilam stanogida to‘qiladigan, naqshli, patsiz taqir gilam.

Arabi gilamlar ilgari ko‘proq Qamashi, Qarshi va Denovda to‘qilgan. Rivoyatlarga qaraganda, arabii gilam to‘qish VIII – XIV asrlarda O‘rta Osiyoga

ko'chib kelgan yoxud Temur tomonidan asir olib keltirilgan arab hunarmandlari tomonidan rasm qilingan. Ular gilam to'qish bilan O'rta Osiyoga kelishdan avval ham shug'ullanganlar. Arabi gilam, *qiz gilam* va *bozor gilam* deb ikki turga bo'lib nomlanadi. *Qiz gilam* – qizlar sepi uchun to'qilib, u hech qachon bozorda sotilmaydi. *Bozor gilam* bo'lsa, faqat bozor uchun to'qiladi. (Kovri, 105).

Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, *arabi gilam*, ya'ni taqir gilamning turli xillari juda ko'p xalqlar orasida keng tarqalgan. Binobarim, arablar O'rta Osiyoga, shuningdek, O'zbekistonga kelguniga qadar ham har xil gilamlar to'qilgan. Chunonchi, XII asrga oid Xitoy manbalarida Naxshab (hozirgi Qarshi) aholisi shohi, atlas, sherst va har xil gulli gilam to'qiydi⁷², deb xabar qilinadi. Ammo shunisi qiziqki, hozir Qashqadaryo viloyatida gilamchilik bilan, asosan, arab va turkman urug'lari shug'ullanadilar. Lekin ular uzoq vaqt yonma – yon bir tuproqda yashashlariga qaramay, gilam ishlab chiqarishda o'zlarining individual texnika va badiiy uslublarini saqlab qolganlar. Bunday faktlar O'rta Osiyoda gilam to'qishning o'ziga xos an'analari qadimdan mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Arabi yoki *arabi gilam* deb nomlanadigan patsiz gilam hozir O'zbekistonning Xiva, Hazorasp, Xonqa, Yangiariq, G'ijduvon, Chiqirchi, Koson, Qarshi, Qamashi, Shahrisabz va Kitob, G'uzor, Urgut, Nurota kabi shahar va tuman gilamchilik kombinatlarida ishlab chiqariladi. Mahalliy aholi arabini arabii gilam, ba'zan gilam deb nomlaydi. Chunonchi: Buxoro, G'ijduvon, Nurota, Shahrisabz va Kitobda gilam termini taqir gilam, ya'ni arabii gilam ma'nosida ham qo'llanadi. Demak, gilam termini shevalarda ba'zan arabii gilamining dealektal, leksik varianti vazifasini o'taydi. Shevalarda arabii gilamning *arobə//arəbь, ərəbь, gьlam, arobь gьlam, ərəvь, ərobь* kabi fonetik variantlari ham mavjud.

Arabi termini qozoq tilida *arabi kilem* shaklida qo'llanadi⁷³. Ammo turkman tilida bu termin qo'llanmaydi. *Arabi, arabii gilam* so'zlari anglatgan

⁷² Иакинф Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, М.-Л., стр. 316-317

⁷³ А. Толеулов. Проблемы синтетического способа словообразования имен существительных в казахском языке. АДД, Алма-Ата, 1973, стр.53.

buyum turkman gilamchiligida ham ishlab chiqariladi va u yuqorida qayd etilganidek, “palas” deb nomlanadi.

Xorazm gilamchilik leksikasidagi texnik terminlarning bir qismi ruscha va rus tili orqali o‘zbek tiliga o‘tgan terminlardir. Ruscha-internatsional terminlarning kirib kelishi ma’lum tarixga ega.

XIX asrning II yarmida rus xalqi bilan boshlangan munosabat o‘zbek tili leksikasiga ayrim so‘zlarning kirib kelishiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu ta’sirni o‘zbek tilining terminologik tizimi, xususan, texnik terminologik tizimi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Chunki o‘zbek tilining texnikaviy tilida rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoxud biror komponenti o‘zbekchallashtirilgan yoki rus tili terminlaridan o‘zbek tiliga o‘z imkoniyatlari asosida o‘girilgan terminlar son-sanoqsizdir.⁷⁴

Gilamchilik leksikasida ham ana shunday terminlar anchagina bor. Gilamchilar rus tilidan tayyor terminlar qabul qilish bilan birga, yangi qurollar va ularning qismlarini atash uchun ilgari ishlatilib kelgan terminlardan va umumxalq o‘zbek tilining lug‘at fondidagi so‘zlardan ham foydalanadilar. Chunonchi: **do‘kon** terminining o‘rnida **stanok** termini ham qo‘llanila boshlangan.

Rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o‘zgarishsiz aynan qabul qilingan terminlar: *master, babina, proba, jakard mashina, val, nitron, kapron, viskoza, vors, lyon, nastilka, rezva, remont, sarja, satin, sex, nachalnik (boshliq)* kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ayrim terminlar ruscha-internatsional so‘zga o‘zbek tilining suffikslarini qo‘shib hosil qilingan. Masalan, *vorsli, vorssiz* kabi; ayrimlari esa o‘zbekcha so‘zlarga ruscha-internatsional so‘zlarni biriktirish yo‘li bilan hosil qilingan. Masalan: *gula val* (qo‘lda to‘qiladigan gilam erishlarining yuqori va pastga tushishi natijasida hosil bo‘ladigan bo‘shliq), *nastilka ip* (xomashyo turi, erishning yo‘g‘onroq turi), *master yordamchisi, mokisiz stanok, vorsli gilam, nachalnik sex (sex boshlig‘i)* kabilar.

⁷⁴ Р.Дониёров. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Тошкент: Фан, 1977, 127-б

Yuqorida bayon etilganlardan ma'lum bo'ldiki, gilamchilikda ishlab chiqariladigan ba'zi bir buyum nomlari turkiy tillarda, jumladan, o'zbek va turkman tillarida o'ziga xos leksik – semantik va fonetik xususiyatlarga ega. Bunday umumiylik va xususiylik holatlari ishlab chiqariladigan asosiy buyum turlarida, ularning nomlarida, naqsh turlarida, nomlash prinsiplarida, ishlab chiqarish jarayonlari, ishlab chiqarish qurollari nomlarida va boshqalarda ham uchraydi.

Xulosa

Xorazm gilamchilik leksikasiga oid soʻz- terminlarni toʻplab tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldik:

1. Bu kasbga oid soʻz-terminlarni batamom toʻpladik, deb ayta olmaymiz. Bu sohani hali chuqur oʻrganish, terminlarning barchasini toʻplash, tartibga solish, leksik-semantik va grammatik jihatlariga koʻra tasnif qilish, mukammal lugʻat tuzish, monografik tadqiqot yaratish zarurdir.

2. Gilamchilik terminlarining qadimgi yozma yodgorliklarda ham mavjud ekanligi maʼlum. Ularning etimologiyasi, tarixiy taraqqiyot jarayoni toʻgʻrisida lingvistik kuzatishlar olib borish lozim.

3. Xorazm gilamchilik leksikasini boshqa qardosh xalqlar - turk, turkman, qozoq, qirgʻizlar gilamchilik leksikasi bilan qiyos qilgan holda tadqiq etish, ular oʻrtasidagi umumiy va farqli tomonlarni aniqlashga yordam beradi.

4. Gilamchilik leksikasi tarkibi, asosan, turkiy soʻzlardan iborat. Ammo kuzatishlarimiz ushbu sohaga oid turkiy boʻlmagan – eroniy, arabiy, rus va boshqa tillarga oid birliklarning ham mavjudligini koʻrsatdi. Shuningdek, ularda sheva xususiyatlari saqlangan.

5. Gilamchilikka oid soʻz-terminlarning oʻziga xos leksik-semantik guruhlari mavjud boʻlib, ularda koʻp maʼnolilik, sinonimiya hodisalari ham uchraydi. Terminlarning morfologik xususiyatlarini oʻrganib shunday xulosaga keldikki, ular struktura jihatdan tub, yasama (sodda) qoʻshma va murakkab turlarga boʻlinadi.

6. Gilamchilik atamalarining ayrim turlari tilimizning juda qadimgi davrlariga aloqador boʻlib, ularni substrat leksik birliklar sifatida chuqurroq, xalq tarixi bilan bogʻliq holda oʻrganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон-келажаги буюк давлат. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999.
3. Абдиев М.Соҳавий лексиканинг систем таҳлили (Самарқанд вилояти касб-хунаrlари материаллари асосида): филол. фанлари доктори ... дис. - Тошкент, 2004.
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1961.
5. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1978.
6. Абдурахмонов Ф., Содиков Т., Носиров Ш. , Туробова М. Ўзбек шевалари лексикаси. “Фан” нашриёти, Тошкент, 1991.
7. Бақоева Ҳ. Ўзбек тили зардўзлик терминларининг семантик группалари ва уларнинг тузилиши, ”ЎТА, 1978, I сон.
8. Бегматов Е. Ўзбек тилининг лексик қатламлари, “Фан” нашриёти, Тошкент.
9. Будагов Р. А. Введение в науку о языке. –М. 1965.
10. Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии // Стилистические проблемы языков науки, терминологии и информатики. ч.1. –М., 1931
11. Даниленко В.П. Как соядается термины // Русская речь.1967. -№2
12. Дониёров Д. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1977.
13. Дўсимов З. Хоразм топонимлари, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1985.
14. Дўсимов З, Эгамов Ҳ. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати, “Ўқитувчи” нашриёти, Тошкент, 1977.

15. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб – ҳунар лексикаси, ЎзФА нашриёти, Тошкент, 1959.
16. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексографияси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1990.
17. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977
18. Калинин А. В. Лексика русского языка. –М.: Изд. МГУ, 1971
19. Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси, Тошкент, 1953.
20. Коготкова Т.С. К вопросу о производственно – профессиональной лексике говора и соотношении ее с терминологической лексикой литературного языка// Диалектная лексика. 1969. – Л. : Наука, 1971.
21. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони, С. Муталлибов таржимаси, ЎзФА нашриёти, Тошкент, 1960.
22. Кутина Л.Л. Формирование терминологии физики в России. М-Л.: Наука, 1966.
23. Лотте Д.С. Основы построение научно –технической терминологии // Вопросы теории и методики. –М.1961. -29 с.
24. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1973.
25. Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. -Тошкент, 1955.
26. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984.
27. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике.-М.: Учпедгиз., 1958.Т.I.-19 с
28. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохли фразеологик луғати, Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1978.
29. Русча – ўзбекча луғат, I-II том, 1983-1984.
30. Русско - узбекский словарь, Тошкент, 1954.
31. Таджикско - русский словарь, Тошкент, 1954.

32. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари, “Ўқитувчи” нашриёти, Тошкент, 1968.
33. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1978.
34. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожикча –форсча ва арабча сўзлар, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1970.
35. Фелькерзам А. Старинные ковры Средней Азии, ж. «Старые годы», 1915, июль.
36. Ўзбек диалектологиясидан материаллар, I-II томлар, Тошкент, 1957 - 1961.
37. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I-II томлар, М., 1981.
38. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” рўзономаси, 1983 йил, 20 май сони.
39. Ўзбек тили лексикологияси, ЎзФА нашриёти, Тошкент, 1981.
40. Ўзбекча – русча луғат (муаллифлар О. Азизов, З. Ризаева), “Ўқитувчи” нашриёти, Тошкент, 1986.
41. Ўзбек халқ шевалари луғати, “Фан” нашриёти, Тошкент, 1971.

Gilamchilik atamalari soʻzligi

A

Andoza – oʻlchov, trafaret (ruscha marka). Gilamchilikda naqsh qoʻyishdan oldin naqsh qogʻozga yasaliib, andozalanadi. Xorazm shevasida andozani “guli” ham deyiladi.

Anjirbargi – gilamchilikda gilamga solinadigan badiiy naqsh kompozitsiyasining bir elementi. Buxoroda “Bargianjir” deb yuritilishi qayd etilgan.

Anjiri – toʻqish jarayoni (bosqichi) yeti qiyim boʻlib 5,6 sm. da toʻqiladi. Baʼzan “poʻchoq” deb ham yuritiladi.

Alam - gilamning boshida, yaʼni sochoqdan, qoqmadan keyin gilamga tushiriladigan naqsh. 4, 4,5sm.

Arqoq ip – erishga toʻqiladigan jun iplar. “Yung” deb ham yuritiladi.

Arqon - gilam gulining nomi

Archa gul – badiiy naqsh elementlarining bir turi boʻlib, xuddi archa shaklida 2-3 sm. Oʻlchamda toʻqiladi.

Asbob – ish quroli. Gilamchilik , duradgorlik, oʻymakorlikda ish bajarishda foydalaniladi. Masalan: pichoq, qaychi, taroq va boshqalar.

B

Bargi – gilamga solinadigan badiiy naqsh kompozitsiyasining bir turi. Bu naqsh shu nomad Oʻzbekistonning hamma viloyatlarida uchraydi.

Bashirgul - gilam guli nomi

Besh dirnoq - gilam gulining nomi

Bodomgul – gilamchilikda gilamga solinadigan badiiy naqsh elementlaridan biri. Tuzilishi bodom guliga oʻxshaydi. Buxoroda bu naqsh “Guli bodom ” deb yuritiladi. (ruschada tsvetok mendalya) deb ataladi.

Boshimir – gilamning bir turi

Bosma – gilamning yana bir turi boʻlib, bunda gilamning gullari bosilib, qoʻyning junidan toʻqiladi. “Kigiz” nomi bilan ham ishlatiladi.

Bodomcha gul - bu soʻz quyidagi maʼnolarda uchraydi:

- a) gilamchilikda gilam naqshining turi.
- b) zargarlikda bilag uzukning yuziga bodom mevasiga oʻhshatib oʻyilgan naqsh
- c) temirchilikda oʻroqning boʻyniga bodom mevasiga yoki bargiga oʻhshatib oʻyilgan naqsh.

Burch gul - gilam gulining nomi.

Butav - gilam gulining nomi

Boʻlak gul - badiiy naqsh elementlaridan biri, tuzilishi, guli boʻlak boʻladi.

V

Viskoza – gilamchilikdagi hom ashyo turi.

Vors - (ruscha). Ipning turi. Gilamchilikda “vorsli, vorssiz gilamlar”terminlari mavjud. Uzun vorsli gilam – vorsning balandligi 8 mm dan, 10 mm gacha (polga toʻshaladi). Kalta vorsli gilam vorsning balandligi 6 mm , 5 mm boʻladi. (devorga osib, mebellar ustini qoplashda ishlatiladi).

G

Gajakgul – badiiy naqsh elementlarining bir turi, ikki tomonida gajagi bor. Bu naqsh Xorazm ustalari yasagan mis idishlarda ham uchraydi. (rus. Tsvetok iz zavitkov).

Gilam - jun gilam, ipdan va sunʼiy tolalardan toʻqilgan toʻshama, roʻzgʻor ashyosi va badiiy buyum. Asosan, xona sahniga boʻyra ustidan toʻshaladi, bezak buyum sifatida esa devorga osiladi. Toʻqima, tikma (tayyor buyumga gul tikiladi) va bosma xillari mavjud. Gilamning naqsh gullari turli rang va shakllarda boʻladi. Patli va patsiz (palos) turlari bor.

Gilamchilik – gilam toʻqish kasbi, hunarmandlik sohasi qadimdan ayollar orasida hunar sifatida keng tarqalgan. Dastlab, yotiq holda yer bagʻirlab oʻrnatilgan pastak, oddiy dastgohlar, keyinchalik ancha takomillashgan (birdaniga bir necha yonma- yon toʻqiydigan tikuvchilar) tikuv dastgohlari qoʻllanildi. Ayniqsa, patli gilamlarni toʻqish ancha murakkab. Chunki

uningnaqsh yoki guli sanama iroqiga o'xshatib, rangli iplarni nusxaga qarab terish asosida yaratiladi. Naqsh yaratishda bandlarning hisobi aniq bo'lishi kerak. Bir qator band bog'lab chiqilgach, arqoq o'tkazilib taroq bilan bostiriladi, so'ngra patlari qaychi bilan tekislanadi, to'qish shu taxlitda davom etadi. Gilam to'qishda asosan, xandasiy naqshlar ishlatiladi. Naqsh va eskizlarni maxsus rassom – usta tayyorlab berdi. Yillar davomida O'zbekistonning Andijon, Xiva, Qarshi, Urgut va boshqa joylarida gilam to'qishning turli usullari shakllana bordi.

Gul - islamiy naqsh bo'lagi. Tabiatdagi gullarning badiiy shakli.

Gullarning har turlari bo'lib, o'ziga xos nomlari bor. Chunonchi, uch besh yaproqli oygul, bargli oygul, lola guli, paxta gul, pista gul, no'xat gul, bodom gul, chini gul, sapsari gul, atirgul, gulafshon, gultojixo'roz va boshqalar.

Gulnora – gilam turi

Gul naqsh - gilam gulining nomi

Gilam to'quvchi - termini o'z davrida to'qimachilik kasbida yuz bergan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo'lgan mehnat tarmog'idagi ish egasining nomini bildiradi.

Guli quyosh – xalq amaliy san'ati turlarida ishlatiladigan naqsh turi. Bunda, asosan, kungaboqar o'simligining guli uslublashtirib tasvirlanadi.

Gula tayoq - do'konga o'rnatilgan gul tayoq. Gilamga naqsh to'qishda shu ip tayoqqa iplar terilib naqsh to'qiladi.

Gula val – qo'lda to'qiladigan gilam erishlarining yuqori va pastga tushishi natijasida hosil bo'ladigan bo'shliq.

Gulacha – 12 donadan erishning (ip) tortilishidan hosil bo'ladi.

D

Daraq gul - gilam gulining nomi

Daraxt gul - gilam gulining nomi

Darvoza gul - gilam gulining nomi

Dastgoh - ish o'rni, biror ish bajarish uchun yasalgan qurilma. (rus.

ustanovka). Chunonchi, miskarlikda supa shaklida yasalgan o'chog' ma'nosida ishlatiladi. Navoiy ham dastgohni asbob, asbob -uskuna yarog' ma'nosida ishlatgan. (O'zb – kl. Ad.. asarlari uchun qisqacha lug'at. 1958, 85 bet). Gilamchilikda gilamchilarning ishlanadigan buyumlarini mahkam ushlab turadigan dastagi qurilmasi, do'kon.

Do'kon – quyidagi ma'nolarda uchraydi:

- a) gilamchilikda gilam to'qiydigan stanok.
- b) metalsozlikning barcha tarmoqlari leksikasida ishxona ma'nosida : temirchi do'koni, do'konni ochish, do'konda ishlash, misgar do'koni, zargar do'koni, pichoqchi do'koni kabi.
- c) yana metal qizdiriladigan o'choq ma'nosida ham ishlatiladi. Toshkent temirchilari do'kon deb "kadravning" o't yoqiladigan va shu o'tda tovlanuvchi temir vba po'lat turadigan qismiga aytadilar.

Dovon – to'quvchilarning ishxonasida ikki ustaning tepa oralig'iga o'rnatilgan va ustidan uchiga tosh bog'langan tanda oshirib qo'shiladigan yog'och g'altak.

J

Jakart mashinalar - (rus.) Gilam to'qish mashinalari bo'lib, 2 turi mavjud.

- 1.Ko'p ilgakli jakart mashinalar. (yirik gulli to'qimalar uchun mo'ljallangan)
2. Kam ilgakli jakart mashinalar. (mayday gulli to'qimalar uchun mo'ljallangan)

Jingalak naqsh- badiiy bezak elementi. Jingalak shaklidagi naqsh bo'lagi. Naqshda to'ldiruvchi qism vazifasini o'taydi. To'kin sochinlik ramzi bo'lgan.

Jilo- gilamning yuzidagi tiniqlik. a) (rus) blesk, sverkaniye. b) palirovka, glyanets (taj – rus. Slavar 1954 -y. 515 bet).

Jun - gilamchilikda ishlatiladigan xomashyo turi. Asosan qo'yning juni.

K

Kamgul – guli (naqshi) kam. Chunonchi kamgul to'qilgan.

Kanop- gilamchilikda ishlatiladigan xomashyo turi. Kanop iplar gilamning tag ipiga tortiladi.

Kapron- (rus . Gilamchilikda ishlatiladigan xomashyo turi.

Kapsa gul - gilam gulining nomi

Kapsa qo‘l gul - gilam gulining nomi, geometrik naqshli.

Kaki- gilamning turlaridan biri bo‘lib, bu hildagi gilamlarning turlari ancha siyrak to‘qiladi.

Kab- muayyan bilim va mahorat talab etiladigan mehnat faoliyatining bir turi. Unga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishiladi.

Kigiz- namat – qo‘y yoki echki junidan tig‘izlab bosish orqali tayyorlangan palos.

Kigizchilik - kigiz tayyorlash kasbi.

Katta usta – tajribakor usta, hunari o‘tkir master.

Kesish - ortiqcha chiqib qolgan erishlarning kesib tashlanishi.

Korxona - ishxona ma’nosida . Navoiy (Korxona) va(KORGOX)tarzida ishlatiladi.

L

Len – (rus). palos uchun ishlatiladigan xomashyo turi.

Lola gul – badiiy naqsh elementlaridan biri, misgarlikda ham ishlatiladi.

O

Oddiy urilish- urilish turi.

Olacha - mato turi – oddiy urilishda to‘qiladi.

Oy – oy shaklida to‘qiladigan naqsh.

Oro – bezak , hasham.

Osma gilam - devorga osiladigan gilam.

Oqlovi - do‘kon qismlaridan biri bo‘lib, bo‘yi 2, 2,5 mm.

Ot tuyog‘ – badiiy elementlaridan biri bo‘lib,,tuzilishi otning tuyog‘I shaklida to‘qiladi.

Oxol tekin – gilamning eng qimmatbaho turi.

N

Navda gul – gulamchilikda badiiy naqsh elementlaridan biri bo‘lib, bu gul asosan gilamning qiyma qismiga to‘qiladi.

Nastilka ip – xomashyo turi, erishnig yo‘g‘onroq turi.

Nax- ip qavatlarini taxta ipak tolalardan tovlanadi.

Naqsh - badiiy bezak.

a) islamiy naqsh b) girix s) ramziy

Naqsh o‘yish - gilamga naqsh solish.

Nozik ish - 1. Qismlari mayda va nafis ish

2. Murakkab ashyolarni ishlash ishi, mayday ish.

M

Master – hunarmand, usta.

Master yordamchi - ustaga shogird.

Mayda gulli o‘rilish - mashina gilam to‘qish uchun mo‘ljallangan o‘ralish turi.

Mari guli - (turkman guli) badiiy naqsh elementlaridan biri.

Mari gul - uch tirnoq - gilam gulining nomi

Mari gul - to‘rt tirnoq - gilam gulining nomi

Mari gul - besh tirnoq - gilam gulining nomi. Xorazm. XX asr boshlari. Dastgoh-qo‘lda to‘qilgan.

Maxsus rezvalar - (do‘konda ikkita bo‘ladi). Gilamning tortish, taranglash va bo‘shatish uchun ishlatiladi.

Mokisiz stanok – to‘quv stanogining bir turi.

Murakkab o‘rilish – bu ham o‘rilish turi.

Mo‘tti gul – badiiy naqsh elementlaridan biri bo‘lib, har yerda bir uyum guli shaklida to‘qiladigan naqsh.

P

Palos -- badiiy to‘qima buyum.

Past vorsli gilam – gilam turlaridan biri. Vorsnig balandligi 4-6mm

Pardozlash - pardoz berish, gilamning ortiqcha chiqib turgan iplari qirqiladi.

Paxta gul - gilam gulining nomi

Paxta tolasi – xom ashyo turi, gilamchilikdagi erishlar paxta tolasidan to‘qiladi.

Pendi – gilam turlaridan biri bo‘lib, eng qimmatbahodir.

Pichoq – gilamchilikda maxsus pichoq bo‘lib, yunglar qirqiladi. Pichoq a) umumiy iste‘mol uchun, b) kasb kor uchun ishlatiladi. Pichoq so‘zi Navoiyda ham uchraydi. “Xay. Abror”.

Pishituvchi – to‘qimachilikda ishlaydigan shaxs. Mashinani xom ashyo bilan ta‘minlaydi. Uzilgan iplarni ulaydi, tugagan bobinalarni ajratadi va mashinadan olingan maxsulotga tamg‘a bosadi.

R

Rezvalar - do‘konda o‘rnatilgan rezvalar, gilamni bo‘shatish va tortishda qo‘llanadi.

Remont – eski asboblarni tuzatish

Ro‘molcha gul – badiiy naqsh elementlaridan bo‘lib 48 torga bir gul solinadi.

S

Sarja – mato turi bo‘lib, oddiy o‘ralishda to‘qiladi.

Satin - mato turi.

Sirim – to‘quv jarayoni, gilamning birinchi to‘qimiga sirim deyiladi.

Sochma gul –gilam turi

Sochoq – gilamning ikkala chetidan chiqib turuvchi erishlar 12-15 sm

Stanok - gilam to‘qiydigan dastgoh, do‘kon.

T

Tandachi - to‘qimachilikda ishlaydigan shaxs, vazifasi: to‘quv stanogining navoga o‘raladigan bir xil uzunlikdagi iplar 2000 tadan kam bo‘lmasligi kerak. Shularni g‘altaklarga o‘raydi. Bu jarayon esa tandalash deyiladi. Uni amalga

oshiradigan mashina esa tandalash mashinasi deyiladi.

Tandalovchi – mashinani ishlatish, uzilgan iplarni ulaydigan shaxs taroq gilamchilikda ishlatiladigan maxsus taroq ba’zan cho’kich, malotok ham deyiladi. Xorazm shevasida doroq deyiladi.

Taka gul – badiiy naqsh elementi.

Tezkor usta – ishni qo’ldan tez chiqaradigan gilamchi.

Tekislash - erishlar (gultayoqqa) tekislab to’qish boshlanadi.

Tekin - gilamning qimmatbaho turi.

Toshbaqa gul - gilam gulining nomi

To’rt tirnoq - gilam gulining nomi, geometrik naqshli.

To’qima gilam - gilam turlarining biri.

To’quvchi – mato to’qiydigan shaxs.

Tikma gilam - gilam turlarining biri. Gilamga gullar tikiladi.

To’qimachilik – to’qimachilik sanoatining asosiy tarmog’i. Neolit davrida davrida paydo bo’lib, ibtidoiy jamoa davrida keng tarqalgan, taxmonan mil. avval 5-6 ming yilliklarda dastlabki to’qimachilik dastgohi paydo bo’lgan.

U

Ulash – gilam to’qishda uzulgan iplarni bir – biriga ulash.

Usta – kasb-hunar egasi, gilamchi usta.

Ustun- do’kon qismlaridan biri, do’konni ushlab turish vazifasini o’taydi.

Utok ip- xomashyo turi bo’lib, erishga to’qiladi.

Uch- gilamning uchlari.

Uborshisa- hozirgi sanoat artellarida ishxonani supurib tozalovchi qora ishchi.

X

Xomuza(zev)- erishlarni yuqori va pastga tushish natijasida hosil bo’ladigan bo’shliq.

Xorazm guli- badiiy naqsh elementlaridan bir turi.

H

Har xil gullar- badiiy naqsh elementi, osoyishtalik ramzi.

Humo qushi tasviri- badiiy naqsh elementi, baxt keltiruvchi.

S

Sex- sanoat artellarida, artelningma'lum turdagi xomashyodan buyumlar yasash bo'limi. Gilamchilik sexi, zargarlik sexi, pichoqchilik sexi, misgarlik sexi, temirchilik sexi.

Sex nachalnik- sexni idora qiluvchi boshliq.

Ch

Chavdar – badiiy naqsh elementlaridan bo'lib, Uning gullari ancha siyrak to'qiladi.

Chinnigul- badiiy naqsh elementlaridan biri.

Sh

Shaxmat gul - badiiy naqsh elementlaridan biri.

Shogird- hunarni o'rganuvchi kishi.

Shoyi gul- badiiy bezak elementi. Gilamga xonatlas shaklida to'qiladi.

Sholcha – uy-ro'zg'or buyumi, tuya, qo'y junlaridan qo'lda to'qiladi. U patsiz bo'lib, yerga to'shaladi. Sholcha naqshi uch usulda yaratiladi:

1. Rangli iplardan.
2. Bosma usulda tushiriladi.
3. Kashta gul tikib bezatiladi.

E

En – gilamning kengligi. 3 metr bo'ladi.

Ennavuch - gilamni tekisqo'yish uchun ishlatiladigan asbob.

Enli- eng keng gilam.

Ensiz – eni tor gilam.

Erish - paxta tolasidan tayyorlangan gilamning tang ipi. Bu gilamchilik sexlariga tayyor holda keltiriladi.

Erik gul- naqsh turi. Xorazmliklarga Turkman tilidan kirib kelgan.

Y

Yarimoy- yarimoy shakllida gilamga tushiriladigan naqsh.

Yulduz - badiiy naqsh elementlaridan bo‘lib, besh yulduz shaklida gilamga tushiriladi.

Yoyiq gul - badiiy bezak elementlaridan biri bo‘lib, ko‘pincha palosga to‘qiladi va gullari yoyiq bo‘ladi.

Yo‘g‘ich gul – gilam gulining nomi

O‘

O‘dima- gilamning ikkala yon tomoni.

O‘lchay- andaza.

O‘ng- gilamning to‘quvchiga qarab turgan tomoni.

O‘rtalik – erishlarni ayirib turuvchi yog‘och.

O‘rta taxta- old va orqa iplar orasidagi chegara taxta, erishlarni birikib qolmasligi uchun qo‘llaniladi.

Q

Qayma - gilamning chetki qismi.

Qashqargul - badiiy naqsh elementlaridan biri.

Qaychi - gilam iplarini qiyishuchu yaslangan ma’lum sabob bo‘lib, 2 bo‘lak po‘latdan, keng, yapaloq yarmidan yuqorisini kesadigan, (damli), yarmidan pastini tor va uchi kalpaksimon qilib yasaladi.

Qaychining bir necha turi mavjud bo‘lib, kasb-hunar leksikasining barcha turida ishlatiladi.

Qizil oyoq - gilamchilikdagi gilam turlaridan hisoblanib, gullari siyrak to‘qilkadi.

Qiyim – ikki marta to‘qilib, bir qirqiladigan to‘qish jarayoni.

Qiyog - alamdand keyingi to‘qiladigan to‘qish bosqichi.

Qoqma - sochoqdand keyin to‘qiladigan to‘quv jarayoni.

Qopsa gul – gilamchilikdagi badiiy naqsh elementlaridan biri

Qirq minus - gul - badiiy naqsh elementlaridan biri.

Qirq qiz - gilam gulining nomi

Qiyish – ortiqcha iplarni qaychi bilan qiyib tashlash.

Quchoq gul - gilam gulining nomi

Qo‘l ishi - qo‘l bilan qilinadigan ish.

Qo‘chqor shoxi - badiiy naqsh elementlaridan biri bo‘lib, xuddi qo‘chqor shoxiga o‘xshab ketadi.

Qo‘chqor kashta gul - gilam gulining nomi

Qo‘sh tirnoq – gilam gulining nomi